

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti

“Himoyaga
tavsiya etilsin”
Fakultet dekani

f.f.d. B. Abdushukurov
“___” - ____ 2018-y.

5111200 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lif yo'nalishi IV kurs 401-guruh talabasi
G'aniboyeva Ziroatning “**Matn tahlilida “Scanning” va “Skimming” metodlaridan**
foydanish” mavzusida yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:
F.f.n. N.Normurodova
Saidaxmedova O.
O'zbek tilini o'qitish
metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Taqrizchilar:
____ F.f.n. I.Asimova
O'zbek tilini o'qitish metodikasi
kafedrasi mudiri,
____ Qurbanova I.
TFI akademik litseyi ona tili va
adabiyoti o'qituvchisi

“Himoyaga tavsiya etilsin”

O'zbek tilini o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri,

_____ F.f.n. I. Azimova
“___” ____ 2018-y

TOSHKENT – 2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	2
I BOB. O‘ZBEK TILI O‘QITISHDA MATN TAHLILINING NAZARIY MASALALARI.....	6
1.1. Ona tili darslarida matn tahlili muammosining o‘rganilishi.....	6
1.2. O‘zbek tili o‘qitishda zamonaviy metodlarning ahamiyati.....	13
II BOB. BADIY MATNDA UNIVERSAL METODLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI.....	21
2.1. Badiiy matnni anglashda “Skimming” metodidan foydalanish.....	21
2.2. Badiiy matnni anglashda “Scanning” metodidan foydalanish	28
III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI	37
3.1. Akademik litsey 2-bosqich uchun kichik guruqlar bilan ishlash metodi asosida tashkil qilingan darsning ishlanmasi va texnologik xaritasi	37
3.2. Leksikologiya bo‘limi yuzasidan olib borilgan tajriba – sinov ishlari tahlili va natijalari.....	49
XULOSA.....	56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	60

KIRISH

Mavzuning dolzarbliji. So‘nggi yillarda ta’lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta’lim beruvchi tomonidan o‘zlashtirilib va qo‘llanib borilishi ta’lim mazmunini tubdan o‘zgartirib yubordi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo‘lga kiritgach, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgandir.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu haqda to‘xtala turib, “...ajdodlardan o‘tib kelayotgan ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o‘ta muhim sohalarda ona tilimizning qo‘llanish doirasini kengaytirish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o‘zlikni, Vatan tuyg‘usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz”¹, - deya ta’kidlagan edilar.

Ta’lim tizimidagi rivojlanish jamiyat taraqqiyotining negizini tashkil etadi. Buning uchun muntazam tarzda boshlang‘ich ta’lim tizimida qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish, shu orqali o‘quvchilarning

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 87.

kompetensiyalarni egallash jarayonlarini jadallashtirish, ularni rivojlanayotgan jamiyat talablariga moslashtirish taqozo etiladi. Sifatli ta’lim olish ehtiyojining kuchayishi O‘zbekiston fuqarolarining muhim hayotiy qadriyati sifatida tobora dolzarblashmoqda. Chunki sifatli ta’lim ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va haqqoniylilikning asosiy omilidir.

“Farzandlarimizni mustaqil fikrlashga, zamonaviy bilim va kasb-hunarni chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi”,² deb o‘z ma’ruzalarida ta’kidlab o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ana shu so‘zlari biz, ta’lim sohasi ishtirokchilari uchun ham dasturulamaldir, ham ustuvor vazifa bo‘lib hisoblanadi.

Bugungi kunda fan sohalarini tizimli o‘rganish va uning afzallikkleri ta’limda yangi-yangi innovatsion yondashuvlar yuzaga kelishida davlatning o‘zi bosh islohotchi ekanligini qaror va farmonlar mazmunida bugungi kun ilm-fani va ta’limi oldiga qo‘yilgan vazifalar aniq hamda ravshan belgilab qo‘yilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab “matn lingvistikasi” yo‘nalishi katta sur’at bilan rivojlanish pallasiga kirdi.

Matn lingvistikasi – matnshunoslik, ritorika, poetika, pragmatika va semantika predmetlari bilan ham o‘zaro aloqada. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha V.V.Vinogradov, M.M.Baxtin, G.O.Vinogradov, I.R.Galperin, R.Yakobson, B.M.Eyxenbaum, O.G.Kamenskaya, A.A.Leontev, M.D.Gorodnikova, A.N.Moroxovskiy va yana ko‘plab olimlar asarlaridan ma’lumot olish mumkin.

BMIning ilmiy-tadqiqot ishlari rejali bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasining “2016-2020- yillarga mo‘ljallangan BMI mavzulari banki” istiqbol rejasi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi ta’lim bosqichlarida matn o‘qitishning, uni tushuntirishning yangi yo‘llarini izlab topish, matn tahlilida

² Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi //Adolat, 2016-yil.-8-dekabr.

jahon tajribasidan foydalanish, badiiy matnni anglashda “Skimming” va “Scanning” metodlarini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni hal etish nazarda tutildi:

- matn va matn tushunchasiga doir ishlarni o‘rganish va tahlil qilish;
- badiiy matnning sintaktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish;
- umumiy o‘rta ta’lim maktablarida badiiy matnni tahlil qilishda interfaol usullardan foydalanishni o‘rganish;
- akademik-litseylarda badiiy matnni o‘rganishning innovatsion loyihamalarini ishlab chiqish;
- matn tahlilida jahon tajribasi bo‘lgan «Skimming» va «Scanning» metodlaridan foydalanishni ta’lim bosqichlariga tatbiq etish.

Tadqiqotning obyekti. Ona tili darslarida badiiy matnni tahlil qilish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti. Ona tili darslarida badiiy matnni tahlil qilish usullari, texnologiyalari va dars ishlanmalari.

Ishning ilmiy yangiligi. Ishda umumiy pedagogika hamda xususiy metodika sohasida mavjud qarashlar asosida ta’lim bosqichlarida ona tili fanini o‘qitishda metodlardan foydalanishning mazmuni va metodikasi tadqiq qilindi. Mazkur ishda quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

- o‘zbek tilshunosligida matn bilan ishlashda qo‘llaniladigan innovatsion metodlar haqida fikr yuritildi;
- matnning tarkibi – semantikasi, matnni tashkil etuvchi birliklar va ularning sintaktik xususiyatlari, imkoniyatlari tahlil qilindi;
- badiiy matnni tahlil qilishda «Skimming» va «Scanning» metodlaridan foydalanishning samaradorligi aniqlandi;
- ta’lim bosqichlarining ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish usullari takomillashtirildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy qimmati matn tahlilida “Skimming” va “Scanning” metodlari asosida o‘rganilishi

bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqotning nazariy xulosalari va amaliy-tahliliy materiallari matnshunoslik masalalarining yanada rivojlanishini yoritishda ham nazariy, ham amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. O‘zbek tili darslarini innovatsion loyihalar bilan o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiriuv malakaviy ishi tarkibiy tuzilishiga ko‘ra, kirish, III bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati jami 64 betdan iborat.

I BOB. O'ZBEK TILINI O'QITISHDA MATN TAHLILINING NAZARIY

MASALALARI

1.1. Ona tili darslarida matn tahlili muammosining o'rganilishi

Ta'lrim vositasi sifatida til-adabiyotdagi matnlarni o'qish leksik-grammatik materialni mustahkamlash uchun zarur nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Matn lingvistikasi va lingvodidaktikasi muammolariga juda ko'plab olimlar murojaat etganlar va o'z mulohazalarini bildirganlar. Ilm-ma'rifatning rivojlanishida matn muammosi masalalari hamisha metodist olimlar e'tiboridadir. Psixolingvist va didaktika masalasi bilan shug'ullangan tadqiqotchilar ta'kidlashlaricha, o'qish – nutqiy faoliyat, tilda qo'shimcha matn bilan ishslash ta'lrim vositasidir, o'qish orqali kasbiy kompetensiya shakllanadi. Ikkinchi holatda matnni maxsus saralash va o'qishga tayyorlash ko'zda tutiladi, bunday tayyorgarlik ma'lum sharoitlar – o'quv vaqtining mavjudligi va turli – kasbiy, lisoniy, nutqiy kompetensiyalarning shakllanganligini taqozo etadi.

M.M. Baxtin, matn – lingvistika, filologiya, adabiyotshunoslik, tarix, huquq va umuman gumanitar falsafiy fikrlash uchun birlamchi ekanini aytadi. Matn – fan va tafakkur shakllanishida beminnat xizmat qiladi. Matn yo'q joyda tadqiqot va fikrlash uchun obyektning o'zi ham yo'q³. G.V. Kolshanskiy ham shu fikrga qo'shilib, matnni belgi, tilni esa matnlar yig'indisi deb ta'riflaydi, bu bilan boshqa biron birlikni emas, balki aynan matnni diqqat markaziga qo'yadi⁴.

Shunday qilib, xalq germenevtiklarining matn tilning eng muhim birligi sanalishi haqidagi fikri yana bir bor o'z tasdig'ini topdi. Demak, chet til o'qitish metodikasi doirasida aynan matn alohida, munosib o'rin egallashi lozim. CHunki tilning eng katta birligi matn deb topilgan.

Badiiy matnni o'qish mezonlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish o'rnlidir:

³ Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 1979. – С.424.

⁴ Клычникова З.И. Психологические особенности обучения чтению на иностранном языке. – Москва: Просвещение, 1983. – С.206.

- a) o‘qishni informativ jarayon sifatida amalga oshirish, axborotning dolzarb, konseptual, ikkinchi darajali turlarini ajrata bilish;
- b) matndagi axborotni tushunish va uni amalda qo‘llay bilish.

Boshqacha aytganda, asosiy axborotning mazmunini to‘liq va aniq idrok etib tushunish talab etiladi.

Matn o‘qitish texnologiyasi mazmuniga ko‘ra, maktablarda turli matnlarni o‘qitishning dolzarb muammolarini aks ettiruvchi matnlar to‘plami sifatida beriladi, bu nuqtai nazardan, texnologiya – ochiq tizim, uning kengayishi yoki qisqarishi bo‘lg‘usi kasb egalarining kommunikativ ehtiyojlari bilan belgilanadi.

Matn bilan bog‘liq mashg‘ulotlarida yangi matnlarni tanlash ta’lim maqsadlari va vazifalari bilan belgilanadi. O‘qish jarayonida matnlarni tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilinadi:

- matn mazmuni axborotning ishonchiligi va dolzarbligini aks etiradi;
- matn mazmuni axborot to‘liqligi va idrok etishning qiyinligi nuqtai nazaridan ta’lim bosqichlari bilan nisbatlanadi;
- matn mazmuni to‘liq o‘zlashtirilishi uchun u taqdimot qilinadi, mashq bajariladi, amalda qo‘llanadi va korreksiya qilinadi. Joiz bo‘lsa, ushbu ketma-ketlik yana qayta qo‘llanadi. Aytish lozimki, matn ajratilgan soat davomida o‘zlashtirilishi muhim. Matn bilan ishslash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish uchun mavzusiga ko‘ra turlicha matnlarni guruhash, bunda o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini hisobga olish kerak. Umuman, matn o‘qitishdagi kommunikativ vazifalar: axborot berish, dalillash, tavsiflash, undash, nutqiy faoliyat yordamida fikr bildirish, muloqot o‘rnatish, asoslash, ishontirish, qayta ishontirish va sh.k.da ta’lim maqsadini aniqlashtiradi.

O‘qishning umumiy maqsadi sifatida bo‘lg‘usi kasb egalarining kommunikativ xususiyatlarini ma’lum darajada faollashtirib, til vositalari bilan muloqotning kasbiy maqsadlariga erishishni belgilaymiz. Bunda quyidagi lingvodidaktik omillar ham hisobga olinadi:

- a) o‘quv maqsadini pedagogik jarayon sifatida aniq belgilash;
- b) o‘qiganda matn ustida ishslashning shakl va usullarini tanlash.

O‘qish uchun tanlangan matnlar, bugungi kun sohaviy yangiliklaridan voqif bo‘lishni ta’minlaydi. Sohaviy matnlar predmeti, demak, o‘quv va ilmiy axborot sanaladi. Bu bilimlarning asosiy ko‘rsatkichlari o‘quvchi dunyoqarashidagi ijobiy o‘zgarish, kasbiy muloqotni rivojlantira olishdir. Ta’lim dasturidagi matnlar ikkita ijtimoiy vazifani bajaradi, bular: axborot va tarbiyaviy (yoki ijtimoiy-pedagogik) vazifalar, bu ikkisi bilishga qiziqishni shakllantirish matndagi axborotni idrok etish vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Matndagi axborot o‘quvchini qiziqtirishi, predmetni yanada ko‘proq o‘rganishga chorlashi lozim. Qiziqish esa matn mazmuni, o‘rganilayotgan muammoning dolzarbligi va amaliy ahamiyati hisobiga uyg‘otiladi. Matn mazmuni o‘quvchida fikrlash jarayonini, kuzatuvchanlikni uyg‘otish, voqelikdagi hodisalarni bilishga qiziqishni shakllantirishga xizmat qiladi. Qiziquvchanlik mohiyatini tashkil etgan barcha xususiyatlar bilishga intilishning eng kuchli ta’sir vositalari sanaladi. Ular predmetga diqqat bilan qarashga, kuzatish, topish, eslash, qiyoslash, mavjud bilimlardan izohlar izlash, yuzaga kelgan vaziyatdan chiqish yo‘lini topishga ko‘maklashadi⁵.

Matn ustida ishslash usullari tizimini quyidagicha tasavvur qilish mumkin: Turli darajadagi leksik-frazeologik va morfologik-sintaktik vositalar bilan ishslash orqali matnni tushunishdagi qiyinchiliklar bartaraf etiladi. Shuningdek, matnni o‘qish jarayoni kommunikativ tashkil etiladi. Bu usullar Matn bilan ishslash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun zarurdir. Bu ishlarda ma’lum tizimda bajariladigan mashqlar muhim rol o‘ynaydi. Ona tili o‘qitish metodikasida mashqlarni tashkil etishning turli darajalari tavsiya qilinadi⁶.

Mashq – o‘quv faoliyatida amalga oshirish yoki, aniqroq aytganda, ta’lim usullaridan biri strukturasiga asoslangan maxsus tashkil etilgan va muntazam bajariladigan maqsadli o‘quv faoliyatidir. Matn ustida ishslash usullari va mashqlari esa ularni qo’llash qoidalarini, muloqotning ma’lum vaziyatida tegishli uslub

⁵ Соловейчик С.Л. От интересов к способностям. – Москва: Знание, 1968. – С.94.

⁶ Рогова Г.В. и др. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. – Москва: Просвещение, 1991. – С.55.

hamda umumiy til normasini tanlash qoidalarini o'zlashtirishda matn o'qitish texnologiyasi asosida amalga oshiriladi.

Matn bilan ishslash malakasini shakllantirish jarayonining o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda o'quvchiga:

1. Nutqiy vaziyatga yo'naltirish, nutqiy ifodani tushunishni va barcha darajadagi til vositalarini tanlash qanday rejalashtirilganligini anglashni o'rgatish muhimdir.

2. Tanlangan til materiallari matn mazmuni, muloqot sohasi va muhitiga muvofiq tarzda qanday ifodalanganini tushuntira olishni, ya'ni matnni nutqiy, kommunikativ, strukturaviy-kompozitsion, strukturaviy-mazmuniy nuqtai nazaridan to'g'ri tushunishni, shuningdek, matnning qurilishi va mazmunini kommunikativ sifatlari: aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, maqsadga muvofiqlik nuqtai nazaridan tahlil qila olishni o'rgatish joiz.

Agar matnning strukturaviy-semantik tashkil etilishini aniqlash, matnning yoki uning biror qismi mazmunini samarali o'zlashtirish, qayta ishslash va transformatsiyalash, uning asosida muloqot qilish malakalari shakllangan bo'lsa, o'qiganda uni idrok etish mumkin bo'ladi. Bunday malakalar matnni tanlash/tuzish jarayonida shakllanadi va mazmunli-operatsion xarakter kasb etadi va takomillashtirilishi mumkin bo'ladi. Buning uchun o'quvchi ma'lum mavzuda jumla tuzishda faol qatnashishi, jumla tuzishi, zarur materialni to'plashi, o'rinli til va nutq vositalarini tanlashi, bunda qo'shimcha matnning kompozitsiya-struktura xususiyatlarini hisobga olishi, keyinchalik o'qiganda matnni to'g'ri tushuna olishi talab etiladi. Matn o'qishni o'rgatish sistemasi qo'shimcha matnni o'qib idrok etish va o'qigandan keyin matnni transformatsiyaning turli shakllari, masalan, og'zaki hikoya shakllari: asosiy axborotni berish, alohida bloklar mazmunini berish, qisqa hikoya qilib berish, asosiy so'zlar, so'z birikmalari bo'yicha hikoya qilib berish jarayonini o'z ichiga oladi.

E.V. Tarasov va A.M. Shaxnarovichga⁷ ko‘ra, matnni tushunish jarayoni ikkita dialektik o‘zaro bog‘liq faoliyat: matnning semantik aloqalarini tushunish hamda matn mazmunini, ya’ni uning ma’no strukturasini ochib berishdan iborat.

Fikrlash jarayonida ikkita qonuniyat mavjud: 1) yangi, g‘ayriodatiy matnni tanish bo‘lganidan ajrata bilish; 2) tanish va notanish matnni o‘rganish, tushunish, mazmunini ochib berishga intilish. Bu ikki qonuniyatdan biri tanish bo‘lgan matnga xos, ya’ni bilim va tajribaga mos ravishda quriladi. Predikatsiyaning bu holati “tema” deb ataladi. Ikkinchchi qonuniyat esa o‘qish jarayonida idrok qilish predmeti sanaladigan “rema” hisoblanadi. Tema va rema munosabatidan mazmun hosil bo‘ladi.

Matn bilan ishslash jarayonini amalga oshiradigan malakalarni ajratib ko‘rsatadilar:

- matnda asosiy mazmunni ajrata bilish;
- bayon qilingan faktlarni umumlashtirish;
- matnning alohida qismlarini qiyoslash;
- matndagi faktlar asosida xulosa chiqarish;
- bayon qilingan faktlarni baholash;
- talqin qila olish.

Mazmunni qayta ishslash umumiyligi ko‘nikmalari sifatida I.P. Pavlov quyidagilarni sanab o‘tadi:

- asosiy g‘oyani (matnning asosiy g‘oyalari, umumiyligi mazmunini) aniqlash;
- matnda mavjud muayyan faktlarni ajratish;
- idrok etilayotgan g‘oyalar izchilligini aniqlash (mazmunli qismlarni ajratish, bayonni umumiyligi mantiqiy jihatdan tushunish);
- g‘oyalar izchilligi (ketma-ketligi)dan ilgarilash (matnning davomi yoki yakuni imkoniyatlarini oldindan aytib berish);
- o‘qilganni baholash;
- matnning emotsiyal kayfiyatini aniqlash;

⁷Тарасов Е.В., Шахнарович А.М. Психолингвистические проблемы обучения чтению текстов // Психолингвистическая и лингвистическая природа текста и особенности его восприятия. – Киев: Высшая школа, 1979. – С.11.

- muallif maqsadini aniqlash⁸.

M.L.Vaysburd va S.A.Bloxinalarning fikricha⁹, o‘qiganni tushunishni o‘rgatishning mohiyati o‘quvchiga tayanch so‘zlarni izlab topishni o‘rgatishdan iborat. Bunday tayanch so‘zlar o‘quvchining shaxsiy tajribasida mavjud bo‘lib, tanish tayanch so‘zlar noma’lum axborotni anglash uchun ishlataladi. Tushunishdagi qiyinchiliklarni mualliflar, avvalo, quyidagi omillar bilan bog‘laydi:

- notanish so‘zlar va tanish leksik birliklarning, omonim, omograflar, ko‘p ma’noli hamda frazeologik, idiomatik iboralar, grammatik vositalarning g‘ayriodatiy ma’nolarini tushunish;
- matn tili o‘rganilayotgan mamlakat(lar) madaniyati, fan, texnika va boshqa sohalardagi yangi faktlarni aks ettiradigan predmet mazmuni;
- materialni bayon etish usuli (kirish, mavzuning shakllantirilmaganligi);
- o‘quvchining yosh va individual xususiyatlari.

Bu kabi barcha qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun tavsiya qilingan quyidagi ko‘p sonli tayanchlarni topa bilish zarur:

- 1) matnda tanish so‘zlarning mavjudligi;
- 2) kontekst;
- 3) sarlavha;
- 4) xos so‘z – realiyalar (tarixiy faktlar, atoqli otlar, jumladan, geografik nomlar ...).
- 5) tayanchlar orasida motivatsiyalangan leksika va ma’nosи kontekstdan ma’lum bo‘lgan so‘zlar (avval o‘rganilgan so‘zlardan yasalgan so‘zlar, konversiyalangan so‘zlar, yangicha ma’nodagi tanish so‘zlar).

M.L.Vaysburd va S.A.Bloxina matnni tushunish uchun muhim bo‘lgan quyidagi mezonzlarni ajratib ko‘rsatadi:

1. Tushunishni o‘rgatishning asosiy obyekti matnnning mazmunidir.

⁸ Павлов И.П. Формирование умений смыслового восприятия речевого произведения // Иностранные языки в высшей школе. – Москва: 1981. – С.34.

⁹ Вайсбурд М.Л., Блохина С.А. Обучение пониманию иноязычного текста при чтении как поисковой деятельности // Иностранные языки в школе. – Москва: 1997. – С.146.

2. Matnni tushunishni o‘rgatishda murakkabliklardan biri o‘quvchining passivligi, ya’ni tanqidiy fikrlashning rivojlanmaganligi sanaladi.

3. Matnni tushunishni o‘rgatish uchun tegishli (leksik, lingvistik, mantiqiy-mazmunli, grammatik) tayanchlarni topishni o‘rgatish.

4. So‘zlar, leksik-grammatik strukturalarni o‘qilganlarni mustaqil fikr va xulosalar tarzida asta-sekin umumlashtirish bilan tushunishni o‘rgatish.

Bu haqda E.Krasnova¹⁰ o‘z maqolasida chuqur ma’lumot berib o‘tgan.

Muallif tomonidan matndan o‘qituvchi tavsiya etgan savollarga javob toping; matnga savollar tuzing; matn rejasini tuzing; matn mazmunini izchil tasvirlang; matn mazmunini sharhlang; matnni qisqartiring kabi mashqlar tavsiya etiladi.

Matnni tushunish jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. Matnni o‘qib tushunishning darajalari – tarjima, sharhlang, izohlash, mohiyat va ma’no, diskurs, matn autentligi, matnni adekvat talqin qilish, tema va rema kabi lingvistik masalalar ham matn o‘qishni o‘rgatishda muhimdir.

Matn o‘qishni o‘rgatishning lingvodidaktik asoslari sifatida qo‘srimcha matn o‘qitish texnologiyasini yaratish tamoyillari, maktab sharoitida qo‘srimcha matnni o‘qish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish jarayonining o‘ziga xosligi kabi muammolar tahlil qilindi.

Aytish mumkinki, matnni idrok etish va qayta yaratishda barcha darajadagi lisoniy va nutqiy qiyinchiliklarni bartaraf qilish imkonini beradigan mashqlar sistemasini ishlab chiqish; kommunikativ, kasbiy maqsadlarga bog‘liq bo‘lgan matnni o‘qishda leksik, grammatik va nutqiy ko‘nikma hamda malakalarini to‘g‘ri ifodalab shakllantirish; kasbiy o‘qish ko‘nikma va malakalarining shakllanganlik darajasini nazorat qilish tizimini ishlab chiqish; matn bilan ishlash uchun lisoniy va nutqiy bazani kengaytirish; matnga oid mashqlarni to‘g‘ri tuzish matn o‘qitishda alohida ahamiyatga ega.

¹⁰ Краснова Е.С. Организация самоконтроля как способ повышения эффективности самостоятельной работы студентов по иностранному языку // Организация самостоятельной работы студентов по иностранному языку/ Под. ред. Ю.И. Соловьева. – Казань: КГУ, 1981. – С. 88-96.

1.2. O‘zbek tilini o‘qitishda zamonaviy metodlarning ahamiyati

Ma’lumki, bugungi kunda ta’limning xilma-xil turlaridan foydalaniladi. Ana shunday ta’lim turlaridan biri interfaol ta’limdir.

Interfaol va interaktiv so‘zlar bir xil ma’noda bo‘lib, interaktiv so‘zi inglizcha “inter” – “birgalikdagi” va “act” – “harakatlanish” so‘zlaridan olingan. Interaktivlik birgalikda harakatlanish yoki suhbat, dialog rejimida nimadir (masalan, kompyuter) yoki kimdir (o‘qituvchi) bilan bo‘lish demakdir. Bundan kelib chiqadiki, interaktiv ta’lim – avvalo, dialogli ta’lim bo‘lib uning davomida o‘qituvchi va o‘quvchi, o‘quvchi va kompyuter o‘zaro hamkorligi amalga oshiriladi¹¹.

Interfaol ta’limning asosini interfaol metodlar asosida darsni olib borish tashkil etadi. Ta’limning interfaol metodlari o‘quvchilarning ulkan ta’limiy kudratidan foydalanish va faollashtirish, o‘quv jarayoniga musobaqa elementlarini kiritish imkonini beradi: ta’lim oluvchilar guruhining aqliy kuchi uning a’zolari kuchi yig‘indisidan ko‘proq (ya’ni guruh natijasi individual natijalar yig‘indisidan doimo ortiq).

Ta’limning interfaol metodlari ta’limda yangiliklar sirasiga kiradi. K.Angelevskiy fikricha, “... barcha davlatlar ta’limga imkon qadar ko‘p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg‘otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta’limning o‘zi yangiliklarga boy bo‘lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim”¹².

Interfaol usulda ta’lim berilganda ta’lim beruvchining roli butunlay o‘zgaradi, markazda bo‘lishni xoxlamaydi, jarayonni boshqarib turadi, kerakli kursatmalarni berib boradi, savol javoblarni muhokama qilishni nazorati ostiga olib vaqtin qiziqish uyg‘otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta’limning o‘zi yangiliklarga boy bo‘lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim”¹².

¹¹ Калдигекова А.С., Ходжаев Б.Х. Ўкувчиларнинг билиш фаоллигини ошириш йўллари. – Т.: ТДПУ, 2006. – Б.57.

¹² Педагогические технологии: понятия, принципы и методы внедрения: Сб. материалов из Интернета./ Сост. С.Махкамова. – Ташкент: 2003. – С.26.

o‘qituvchi o‘zining o‘qituvchiligi esidan chiqarib qo‘ymasligidir”. O‘qituvchi o‘zini o‘quvchilardan “tepa” pog‘onada tutmasdan balki,birga yonma-yon turib butun borlig‘in o‘quvchilarga berib muloqot qila olishi kerak. Qatnashuvchilar mashg‘ulot jarayonida ijtimoiy tajribalarga murojat qilishadi, birgalikda faoliyatni amalga oshirishadi, umumiy bir nuqtani topib birga harakat qilishadi.

G‘arbda pedagogikaning interfaol metodlari bilan shug‘ullanadigan qismi interaktiv pedagogika ham deb ataladi.

Interaktiv pedagogika yoshlarni talabalarni faolliklari xilma-xilligini hamkorlikdagi hayrixohligi asosida ularni yangi faollikka, yaratuvchanlikka, buniyodkorlikka undovchi pedagogika bo‘lib talabalarga bunday sifatlar ular erkin sifatlar egallaganliklaridan shakllanadi, rivojlanadi.

Hozirgi vaqtida ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy usullarini qo‘llash, o‘qitish jarayonida yuqori natijalarga olib keladi. Ta’lim usullarini har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni turli-tuman zamonaviy usullar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasini ko‘tarilishini ta’minlaydi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda interfaol usullarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni ommaviy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu usullar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi.

Interfaol usullarni qo‘llash bo‘yicha **umumiy metodik tavsiyalar**:

1. Ishlash uchun joyni tayyorlash. Auditoriyani shunday tayyorlash kerakki, bunda ishtirokchilar kichik yoki katta guruhlarda ishslash uchun qulay joylashishlar zarur.
2. Jarayon va reglamentga jiddiy munosabatda bo‘lish. Barcha tinglovchilar har bir nuqtai nazarga sabrli bo‘lib, so‘z erkinligini hurmat qilishlari kerak.
3. Tinglovchilarning guruhlarga bo‘linishiga jiddiy e’tibor berish.

4. Tinglovchilarning hammasi u yoki bu darajada ishga jalb qilingan bo‘lishi kerak.

5. Tinglovchilarning mashg‘ulotga ruhiy tayyorgarligiga ko‘maklashish.

6. Interfaol usullar asosida mashg‘ulotlar o‘tkazilganda guruhda ta’lim oluvchilar soni ko‘p bo‘lmasligi kerak. 4-6 kishidan iborat bo‘lgan kichik guruhlarda samarali ish olib borish mumkin.

Dars jarayonida interfaol metodlar asosida ish olib borilganda esa turli xil faol metodlar, har xil grafik organayzerlardan foydalanib, pedagogik texnologiyalar asosida ta’limni tashkil etishni anglatadi. Eng asosiy mazmun darsning faol o‘tishidir, buna o‘qituvchi ham faol ishtirok etadi o‘quvchilar ham faol ishtirok etadi. Yana bir qulaylik taraflari shundan iboratki, interfaol tarzda amalga oshirilgan dars tiplarida passiv o‘zlashtiruvchi talabalar ham faollikka intilishadi, natijada unda shu mavzu yuzasidan tushunchalar hosil qilinadi va baholanadi. O‘qituvchi hamda o‘quvchilarning birgalikda olib boriladigan bunday faoliyati an’anaviy dars tiplaridan tubdan farq qiladi, chunki interfaol ta’lim, interfaol metodlar noan’anaviy darslarda yaxshi samara beradi.

Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars mobaynida ma’lum nazariy bilimlarni o‘quvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malaka hosil qilish, ma’naviy sifatlarni shakllantirish, o‘quvchi bilimini nazorat qilish hamda baholash o‘qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi.

Bu borada o‘qituvchi darslarda foydalanishi mumkin bo‘lgan ayrim pedagogik vositalar: ta’kidlovchi savollar bunda o‘quvchining bergan savoliga qarab, uning fikrlash darajasini aniqlash mumkin. O‘qituvchi alternativ, o‘quvchini faollikka chorlovchi savollar orqali sinfda ijodkorlik, izlanuvchanlik, qiyoslash, o‘xshashlik va farqini topish singari xususiyatlarni rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Savollar berish bilan birgalikda o‘quvchilarda, fikrlashga majbur qiluvchi savollar tuzish qobiliyatini ham shakllantirib boradi. Hozirgi paytda ta’lim sohasida keng qo‘llanib kelinayotgan interfaol metod va usullarni sanab o‘tamiz

bular: aqliy hujum, klaster, mustaqil xat, Venn diagrammasi, harakatli ma’ruza, o‘zaro ta’lim, muallifga savollar, “bilaman, bilishni istayman, bilib oldim” (BBB), insert, bahs-munozara, sinkveyn, qadriyatlar tizimi, debat, hamkorlikda izlanish, esse va boshqalar.

Bu usullar asosan bosqichlarga ajratilgan dars jarayonida qo‘llaniladi (chaqiruv, anglash, fiklash) va o‘qituvchi o‘quvchilarga tegishli topshiriqlar beradi. Bu metodlar va usullar o‘quvchida kommunikativ qobiliyatning o‘sishiga, o‘quvchilar orasida hissiy aloqa o‘rnatalishiga, muammoli vaziyatlar yechimiga, guruhda ishslashni, o‘zgalarning fikrini tinglay olishni va o‘z fikrini mustaqil bayon etishni o‘rgatibgina qolmasdan, unda o‘ziga ishonch, bilimiga tayana olish, qiziqishlarining kuchayishiga, keng fikrlashga olib keladi.

“Fikriy hujum” metodi. A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo‘lgan, uning asosiy tamoyili va shartli mashg‘ulot (baxs)ning har bir ishtirokchisi tomonidan o‘rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo taqiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag‘batlantirishdan iboratdir. Bunday ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarning mashg‘ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta’minlashdir. Ta’lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvafaqqiyatli foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko‘laming kengligiga bog‘liq bo‘ladi. “Fikriy hujum” metodidan foydalanish chog‘ida o‘quvchilarning soni 15 nafardan ochmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg‘ulot bir soatga qadar tashkil etilishi mumkin.

“Yalpi fikriy hujum” metodi. Ushbu metod. J.Donald Filirs tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uni bir necha o‘n (20-60) nafar o‘quvchilardan iborat sinflarda qo‘llash mumkin. Metod o‘quvchilar tomonidan yangi g‘oyalarning o‘rtaga tashlanishi ushun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har biri 5 yoki 6 nafar o‘quvchilarni o‘z ishiga olgan guruhlarga 15 daqiqa ishida ijobiy hal etilishi lozim bo‘lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar berilgan vaqt ichida ijobiy hal etilgash, bu haqida guruh a’zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning

yechimi) o‘qituvchi va boshqa guruqlar a’zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o‘ziga xos deb topilgan javoblarni e’lon qiladi. Mashg‘ulot jarayonida guruh a’zolarining faoliyatlarini ularning ishtiroklari darajasiga ko‘ra baholab boriladi.

6x6x6 metodi. Ushbu metod yordamida bir vaqtning o‘zida 36 nafar o‘quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. “6x6x6” metodi asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlari har birida 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 6 ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgash o‘qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo‘ladi. Yangi shakllangan guruh a’zolari o‘z jamoadoshlari guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni bирgalikda muhokama qiladilar.

Eng muhim, mashg‘ulot ishtirokchilarining har biri qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma’ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

Ushbu metodni 5, 6, 7 va hatto 8 nafar o‘quvchidan iborat bo‘lgan bir necha guruqlar ham qo‘llash mumkin. Biroq yirik guruqlar o‘rtasida “6x6x6” metodi qo‘llanilganda vaqtini ko‘paytirishga to‘g‘ri keladi. Shunki bunday mashg‘ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish ushun ham birmuncha ko‘p vaqt talab etiladi. So‘z yuritilayotgan metod qo‘llanilayotgan mashg‘ulotlarda guruqlar tomonidan bir yoki bir necha mavzu (muammo)ni muhokama qilish imkoniyati mavjud.

“6x6x6” metodidan ta’lim jarayonida foydalanish o‘qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo‘lishni talab etadi. Guruhlarning to‘g‘ri shakllantirmsligi topshiriq yoki vazifalarning to‘g‘ri hal etilmasligiga sabab bo‘lishi mumkin. “6x6x6” metodi yordamida mashg‘ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O‘qituvchi mashg‘ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stul qo‘yib chiqadi.

2. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo‘linadilar. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lishda o‘qituvchi quydagisha yo‘l tutish mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan obyekt (masalan kema, to‘ljin, baliq, delfin, kit, akula) surati chizilgan lavhani qo‘yib chiqadi. Mashg‘ulot ishtirokchilariga kema, to‘ljin, baliq, delfin, kit hamda akula surati tasvirlangan (jami 36 ta) varaqlardan birini olish taklif etiladi. Har bir o‘quvchi o‘zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo‘yilgan stuldan joy egallaydi.

3. O‘quvchilar joylashib olganlaridan so‘ng o‘qituvchi mashg‘ulot mavzusini e’lon qiladi hamda guruhlarga muayyan torshiriqlarni beradi. Ma’lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.

4. O‘qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o‘rinlarda guruh a’zolariga maslahatlar beradi, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan torshiriqlarning to‘g‘ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so‘ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so‘raydi.

5. Munozara ushun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o‘qituvchi guruhlarni qaytadan shakllanttaradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhning har biridan bir nafar vakil bo‘lishiga alohida e’tibor qaratiladi. O‘qituvchilar o‘z o‘rinlarini almashtirib olganlaridan so‘ng belgilangan vaqt ishida guruh a’zolari avvalgi guruhlariiga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlariga so‘zlab beradilar. Shu tartibdan yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (topshiriq yechimlari)ni muhokama qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar.

“Zigzag” strategiyasi metodi. Sinf o‘quvchilari 7 guruhga bo‘linadi va guruh nomlanadi. Guruhlarda yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlarga topshriladi. O‘quvchilar matnlarni diqqa bilan o‘rganadilar va gapirib beradilar. Vaqtin tejash maqsadida guruh a’zolari orasidan liderlar tanlanadi va qayd etilgan vazifa ular tomonidan bajariladi. Liderlarning fikrlari guruh a’zolari tomonidan

to‘ldirilishi mumkin. Barcha guruhlarning o‘quvchilar o‘zlariga topshirilgan matn mazmuni xususida so‘zlab berishgandan so‘ng, matnlar guruhlar aro almashtirilib, avvalgi faoliya takrorlanadi. Guruhlarga bir necha matnlar taqdim etiladi. Shu tarzda barcha matnlar mazmuni guruhlar tomonidan o‘rganib chiqilgach, o‘quvchilar o‘tilgan mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning o‘zaro mantiqiy bog‘liqligini aniqlaydilar, yuzaga kelgan g‘oyalar asosida mavzuga oid sxema ishlab chiqiladi. So‘ngra o‘zlashtirilgan bilimlar asosida o‘quvchilarnng o‘zlariga shunday sxemalarni ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

“Skarabey” texnologiyasi. “Skarabey” interaktiv texnologiya bo‘lib, u o‘quvchilarda fikriy bog‘liqdir, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o‘z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o‘quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini holis baholash, o‘rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U ayni paytda, turli g‘oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog‘liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi. “Skarabey” texnologiyasi har tomonlama bo‘lib, undan o‘quv materialining turli bosqichlarini o‘rganishda ifodalanadi:

- boshida-o‘quv faoliyatini rag‘batlantirish sifatida (“Aqliy hujum”);
- mavzuni o‘rganish jarayonida - uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash;

- ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash, mavzuni yanada chuqurroq o‘rganish, Yangi jihatlarni ko‘rsatish;

- oxirida- olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.

“Skarabey” texnologiyasi o‘quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o‘quvchilar tajribasidan foydalanishni ko‘zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o‘tkazish imkoniyatlariga ega.

Mazkur texnologiyalarning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko‘rsatish mumkin.

“Skarabey” alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o‘quv jamoalarida qo‘llanishi mumkin.

Ta’limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi;

- o‘zgalar fikriga hurmat;
- jamoa bilan ishslash mahorati;
- faollik;
- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashish;
- imkoniyatlarini ko‘rsatish ehtiyoji;
- o‘z qobiliyai va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
- “men”ligini ifodalashga imkon beradi;
- o‘z faoliyati natijalariga mas’ullik va qiziqish uyg‘otadi.

Asosiy tushunchalari assotsiatsiya mantiqiy bog‘liqlik bo‘lib, sezgilar, tasavvurlar, idrok qilish, g‘oyalar va boshqalar orasida hosil qilinuvchi mantiqiy aloqadir. Zanjirlash (muayyan tartib) – ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblashdir.

Demak, maktab va akademik litsey ona tili ta’limida qo‘llaniladigan qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik va ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlarning mazmuni va mohiyati, tatbiq etish yo‘l-yo‘riqlari yuqoridagi innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilsa, samaradorlikka erishish imkoniga muvaffaq bo‘ladi. Bajariladigan har bir mashq va topshiriq innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilsa, o‘quvchilar faolligi yuzaga keladi va bu darsning yanada samarador bo‘lishini ta’minlaydi.

II BOB. BADIY MATNDA UNIVERSAL METODLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

2.1. Badiiy matnni anglashda “Skimming” metodidan foydalanish

L.P. Doblaevning fikricha¹³, tushunish jarayoni, birinchi galda, mashqlar bajarish bilan bog‘liq, demak, matnni yaxshiroq tushunishga erishish imkonini beradigan asosiy usul savol qo‘yish-javob izlash sanaladi. Bu usul uch ko‘rinishga ega:

- a) o‘qituvchi matnni o‘quvchi to‘liq o‘qib bo‘lganidan keyin savollar beradi, o‘quvchi esa ularga javob qaytaradi;
- b) o‘qituvchi oldindan, o‘quvchi matn bilan ishslashga kirishishidan oldin savollar qo‘yadi, o‘quvchi esa o‘qish jarayonida ularga javob izlaydi;
- v) o‘quvchi o‘qish davomida o‘ziga savollar qo‘yadi va ularga javob topishga urinadi.

L.P. Doblaev avvaldan qo‘yilgan savollarning afzalligi haqida shunday deydi: bunday usul o‘quvchilarining fikrlash jarayonlarini rag‘batlantirib, ularni maqsadga erishish – javoblarni topishga yo‘naltiradi, matnni o‘z so‘zлari bilan ifodalab berishlariga ko‘maklashadi, matnni o‘zlashtirishdagi mustaqillik darajasini oshiradi, uni mexanik idrok etishning oldini oladi. Bunday savollarga javob topishning natijasi o‘z bilimiga ishonchning kuchayishi, ishidan qoniqish hissining paydo bo‘lishi, matn bilan ishslashga qiziqishning ortishi bo‘ladi.

Biroq matn mazmunini anglashning asosiy usuli – matn sub’ekti yoki predikatiga muammoli vaziyatda savolni o‘zi qo‘yish – unga javob topish.

Matnni tushunish usullarini shakllantirishning to‘rt bosqichi mavjud¹⁴:

Birinchi bosqichda ko‘proq bitta asosiy usul – “o‘ziga o‘zi savol berish - unga matndan javob topish” qo‘llanadi va ba’zan antitsipatsiya (lotincha,

¹³Доблаев Л.П. Вопросы психологии понимания учебного текста. – Саратов:Саратовского университета, 1965. – С. 92.

¹⁴ Доблаев Л.П. Смысловая структура текста и проблемы его понимания. – Москва: Педагогика, 1982. – 176 с.

“anticipatio”, oldindan sezish) usuli qo‘llaniladi. Odatda, bu usullar o‘qituvchi ishtirokida qo‘llaniladi.

Ikkinch bosqichda o‘quvchilar matnni aytib berish uchun asosiy g‘oyalarni ajratish va matnning mantiqiy strukturasini anglashga oid ma’lum malakalarini namoyon qiladi (Matnni aytib berish – maqsad emas, balki tushunishni o‘rgatish vositalaridan biri, xolos). Savollarni mustaqil qo‘yish endi faqat o‘qituvchining talabi emas, balki o‘quvchining matndan olgan axborotlarni nutqda qo‘llab, matnni gapirib berish va savollarga javob bera olish uchun bilim olishga, materialni tushunish hamda uni eslab qolishga harakati bilan ham ifodalanadi.

Uchinchi bosqich uchun o‘quvchilarning matnni yaxshiroq tushunishga, mazmun masalasini hal qilishga, noma’lumni anglashga, matndan javob topish, matndagi axborotni mustaqil idrok etishga intilishi xarakterli. Bu bosqichda asosiy usullar o‘z-o‘ziga savol qo‘yish va javob topish, taxminlar orqali matn mazmunini ochishdan iborat. Ko‘p hollarda bu usullardan mustaqil foydalaniladi.

To ‘rtinchi bosqichda matnga tanqidiy munosabat bildiriladi. «Nihoyat, matn mazmunini anglash chog‘ida yuzaga keladigan psixologik holat – aqliy faoliyat va bunda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengishga tayyorlik holati bilan kechadi»¹⁵.

Aytish joizki, ushbu usul matnlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda motivatsiyani kuchaytirish va tadqiqot maqsadiga erishishga yordam beradi. Matn bilan ishslashning quyidagi ketma-ketligi tavsiya etiladi:

1. Sarlavhani o‘qiymiz, mazmunini tasavvur etamiz, matn bilan ishslash maqsadini belgilaymiz.
2. Matndagi notanish so‘zni ajratamiz.
3. Lug‘atdan foydalanamiz.
4. Matnni qaytadan o‘qiymiz, mazmuni haqida yaxlit tasavvur hosil qilamiz.
5. Olingan axborotni xotirada saqlash masalasini hal etamiz¹⁶.

¹⁵Доблаев Л.П. Смысловая структура текста и проблемы его понимания. – Москва: Педагогика, 1982. –176 с.

¹⁶Вайсбурд М.Л., Блохина С.А. Обучение пониманию иноязычного текста при чтении как поисковой деятельности // Иностранные языки в школе. – Москва: 1997. – С.12.

Tavsiya etilgan matn bilan ishlash usullari asosan an'anaviy bo'lib, bu matn mazmunini tushunishni o'rgatish amaliyotidagi ma'lum turg'unlik holatidan dalolat. Biroq, shubha yo'qliki, bu jarayon amaliyotchi-o'qituvchilar diqqat markazida turibdi. Bunday usullardan foydalanish matn o'qitishdagi mavjud muammolarni butunlay hal etmasa-da, o'quvchi faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Matnni tushunish muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarda¹⁷ quyidagi ikki holat e'tirof etilgan: matnni tushunish o'quvchi tomonidan shu matnda aks ettirilgan real voqelik predmetlari o'rtasida aloqalar o'rnatish degani; matnni tushunish hamma vaqt o'quvchining tajribasiga, jumladan, uning so'z ma'nolarini bilishi, matn mazmunini yoritishga ko'maklashadigan gaplar mazmunini, ijtimoiy-madaniy kontekstni tushunishiga tayanadi.

Matn mazmunini umuman tushunishni osonlashtirish uchun o'qituvchi o'quvchilar ishini aniq muvofiqlashtiradi va ularga o'ziga xos dastur tavsiya etiladi¹⁸. Bunday yo'riqnomasi quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. Sarlavhani o'qing va matnning asosiy mazmunini aniqlashga urining.
2. Sizga yordam berishi mumkin bo'lgan matn oldi yoki matndan keyingi mashqlarni diqqat bilan o'rganing.
3. Yaxlit matnni, notanish so'zlar va boshqa nutqiy qiyinchiliklarga e'tibor bermay, tez o'qing va umumiyligi mazmunini ilg'ab olishga urinib ko'ring.
4. Matnni yana bir bor o'qing, notanish so'z ma'nosini lug'atdan izlamang. Kontekst yoki so'z yasash qoidalariga ko'ra fahmlashga urining.
5. Qiyin va notanish so'zlarga e'tibor qiling hamda matn mazmunini umumiyligi tushunish uchun prinsipial ahamiyat kasb etish/etmasligini aniqlashga urining va h.k.
6. Lug'atga faqat notanish so'z matnning umumiyligi mazmunini tushunishga xalal bersagina qarang.

¹⁷ Зашковская Н. Текст в «Диалоги культур и сознаний» // Текст: проблемы и перспективы. Аспекты изучения в целях преподавания русского языка как иностранного: Тезисы международной научно-методической конференции. – Москва: МГУ, 1996. – С.43.

¹⁸ Саланович Н.А. Обучение чтению иноязычных текстов лингвострановедческого содержания // Иностранные языки в школе. – Москва: 1999. – С.6.

7. O‘qiganingizning umumiy mazmunini xayolan tasavvur eting. O‘qish jarayonida olgan yangi axborotingizni guruhda muhokama qiling.

8. Olingan ma’lumotlar asosida o‘zingizning yangi matningizni tasavvur qilishga urinib ko‘ring.

Shu tariqa matnning mazmuni to‘liq anglashiladi. Matndagi umumiy mazmun hamda uning kichik detallarigacha bo‘lgan qismi o‘rganiladi.

O‘qilayotgan materialni tushunishda bir necha xil uslublar mavjud. Qachonki odamlarga barcha ma’lumot emas, faqatgina muxim g‘oyalar kerak bo‘lsa, ular matnni ajratib olib o‘qiydi. Bu turli strategiyalarni o‘z ichiga oladi; masalan, qachonki inson gazetadagi maqolani ajratib olsa, u malumotni mazmuni aks etgan sarlavha, ilk qatorni yoki ilk xat boshini o‘qiydi. O‘quvchi maqolaning qolgan xat boshlarini ilk gaplarini o‘qib, qolgan qismiga ko‘z yogurtirib o‘tib ketadi. Bu uslub qachonki inson matnni to‘liq mazmuniga qiziqmasa, ammo buning o‘rniga undagi asosiy tushuncha va muhim g‘oyalarni topishga intilganda qo‘llaniladi.

“Skimming” va “Scanning” matn ustida ishlashga doir ikki xil metoddir. “Skimming” – bu matndan umumiy fikrni aniqlab olish uchun qo‘llaniladi. “Scanning” esa matndan yoki hujjatdan muayyan so‘z yoki iborani topishga qaratilgandir.

Matn bilan ishlash, odatda, bir texnika sifatida ko‘rib chiqiladi. Odamlar biror ma’lumot yoki bilimni olish uchun maqola, kitob va boshqalarini o‘qishadi. Bir necha marta, vaqtning yetishmasligi kabi turli sabablarga ko‘ra tezroq o‘qish kerak bo‘ladi.

“Skimming” va “Scanning” – bu o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirish uchun ikki tez o‘qish metodikasidir. Skimming odatda matn haqida umumiy fikrni olish uchun tezroq o‘qiydigan usulni anglatadi. Bu kitob o‘qishni va tushunishni o‘z ichiga olmaydi. Ammo, ko‘pincha matnni tezda tushunish uchun o‘quvchining ko‘nikmalariga bog‘liq. Umuman olganda, o‘quvchi tezda barcha kerakli so‘zlarni yoki matnni muhim deb hisoblaydigan matnni o‘qiydi va keyinchalik matn to‘g‘risida umumiy fikrga ega bo‘lishga harakat qiladi. Ba’zida vaqt cheklov bo‘lib

qolsa, bu faqatgina tegishli matnni o‘qib, skimmingga erishiladi. Masalan, faqatgina mavzularni o‘qishi mumkin.

Matnga ko‘z yogurtirib chiqish bu aniq ma’lumot qidiruviga e’tiborni jamlagan xolda tez o‘qish, ko‘z yogurtirib chiqish ko‘zning tez xarakatini o‘z ichiga oladi. Bunda ko‘zning xarakati to‘g‘ri chiziqli bo‘lishi shart emas, kerakli ma’lumotni topmaguncha ko‘z xaotik xarakatlanadi, ma’lumot, simvol, formula va ibora kabi ma’lumotning ma’lum bir qismi kerak bo‘lganda qo‘llaniladi. O‘quvchi izlaganda topadigan predmet qanday ko‘rinishda ekanligini biladi. Unda taxmin qilinadiki, uzoq muddatli xotirada juda kam ma’lumot qayta ishlanadi xattoki tez tushuncha paydo bo‘lganda ham chunki maqsadlar muvofiqligi mavjud.

“Skimming” aniq ma’lumot olish uchun texnik, ilmiy va kasbiy materiallar bilan qo‘llaniladi, ikkinchi tilni o‘rganuvchilar uchun qimmatli ko‘nikma xisoblanadi, chunki u matnni toliq o‘qishni talab etmaydi.

Bunda o‘qituvchi aniq ma’lumotdan tashkil topgan parchani tanlaydi, o‘qituvchi telefon ma’lumotnomasi, menu, avtobuslar jadvali kabi real xayotdan olingan ishonchli ma’lumotlardan foydalanishi mumkin, talabalar matnga ko‘z yogurtirib chiqishdan avval o‘qituvchi ma’lumotning matda qanday shakllantirilganligi haqida so‘rashi mumkin, o‘qituvchi talabalarga kerakli ma’lumotni topish uchun diqqat bilan o‘qish davomida ular sarlavha va kalit so‘zlarga asosiy etiborni qaratishi lozimligini eslatishi kerak.

Talaba o‘qishdan oldin savollarni shakllantiradi. Talaba konteksdagi yo‘riqlarni izlaydi. Talaba qanday yo‘riqlar foydali bo‘lishi va javobning qanday ko‘rinishi haqida oldindan ko‘rishga intiladi. Talaba o‘zida kalit so‘zni saqlovchi raqam, yozma sonlar, bosh xarfli so‘z yoki qisqa iboralar kabi javobning grafik shaklini biladi.

Bunda ishlar o‘z ichiga talabalar bitta so‘z yoki aniq matn uchun ko‘z yogurtirib chiqadigan o‘qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan mashqlarni oladi, ishlar o‘z ichiga musobaqa sifatida o‘tkaziladigan mashqlarni oladi, shuning uchun talabalar tez ishlashadi, talabalar oldindan ko‘ra bilish va bashorat qilish

ko‘nikmalaridan foydalanadi. Qatnashchilar quyidagi harakatlardan istalgan birini amalga oshirishlari mumkin.

- parcha nima ekanligi to‘g‘risida tasavvur paydo qilish uchun sarlavha va mundarijadan foydalaning;
- ayrim savollarga javob berish yoki viktorinani yechish orqali o‘tilayotgan mavzu bo‘yicha oldingi bilimlarni faollashtiring;
- matnni tarkibini bilish uchun sarlavha, rasm va oldingi bilimlardan foydalaning;
- o‘qituvchi tomonidan ularga berilishi mumkin bo‘lgan asosiy g‘oyani ifodalaydigan, ammo matnda gavdalanmaydigan, kalit so‘zlardan foydalaning.

Bugungi kunda samarali o‘quvchilar(kitobxonlar) passiv xisoblanmaydi. Ular mumkin bo‘lgan natijalarga bo‘g‘liq maqsadlar haqida g‘oya va ishonchga ega bo‘lgan holda matnni o‘qishadi. Ular o‘qish davomida kutilgan natija haqida o‘ylab keyin nima bo‘lishini oldindan ko‘rishadi. Boshqacha so‘z bilan ular “matn bilan o‘zaro ta’sir” qilishadi.

Boshqa tomondan, ajratib o‘qish odatda ushbu texnikani muayyan matnni qidirish uchun hujjatga murojaat qilganida bildiradi. Hujjatni to‘liq o‘qish kerak emas. Tezda skanerlash uchun namunani tanib olish qobiliyatini talab qiladi. Ko‘p odamlar uni kundalik hayotda ishlatalishadi - telefon daftarida muayyan telefon raqamini izlashda va h.k.

Skimming butun maqolani ko‘rib chiqadi, lekin skanning faqat aniq matnni yoki mashqni topishdir. Shuning uchun, skanningdan ko‘ra, so‘zni aniqlashni yanada yaxshiroq tushunish talab etiladi. Skimmingdan farqli o‘laroq, uni skanerlashda u hujjatda qidirishni xohlagan matnni allaqachon biladi. Shu bilan birga, o‘quvchi odatda hujjat haqida hech qanday yoki oz fikrga ega emas. Skimming o‘qish va tushunchalar haqida ko‘proq narsa bo‘lsa, skanning - bu izlanish yoki topishga tegishli. Shuning uchun har ikkalasi bir-biridan farq qiladi.

“Skimming” va “Scanning” metodlari orasidagi farqni quyidagi jadval asosida ko‘rib chiqish mumkin:

	“Skimming” metodi	“Scanning” metodi
Ta’rif	Tez o‘qish uchun usul. O‘quvchi maqolani uning umumiyl g‘oyasini olish uchun o‘qiydi.	O‘quvchi hujjatda muayyan matn yoki so‘zni qidirishga harakat qiladigan usul
Talab	Matnni tezda ko‘rib chiqish imkoniyati. O‘qish jarayonida emas, balki nimani anglatishini tushunish qobiliyati	Tez topish qobiliyati, tarmoqlardan foydalanish ma'lum bir ma'lumotni izlashda samarali bo‘lishi mumkin, Kalit so‘zlarga e'tibor beriladi
Maqsad	Umuman, maqolaning umumiyl g‘oyasini olish, matn bilan tanishishdan avval u haqida umumiyl ma'lumot olinadi.	Umuman, ro‘yxatdagi telefon raqamini izlash, matndagi alohida signal so‘zni toppish.
Boshqaruv	Sarlavhani diqqat bilan o‘qish, birinchi paragraf va kirishni diqqat bilan o‘qish kerak, har bir xatboshidagi birinchi jumlan o‘qishga e'tibor berish. Sarlavha va pastki sarlavhalar o‘qilishi kerak Rasmlar, jadvallar yoki grafikalar e’tiborga olinishi kerak. Kursiv va qalin harflar yoki so‘zlar farqlanishi kerak.	O‘quvchi hujjatda qidirilishi kerak bo‘lgan aniq ma'lumotlardan xabardor bo‘lishi kerak Agar siz qo‘ng‘iroqni qidirayotgan bo‘lsangiz, javoblarni topish uchun ishlatalishi kerak, keyin faqat raqamlarni izlash kerak Sarlavhalar kerakli ma'lumotlarning joylashuvini taklif qilishda foydali bo‘lishi mumkin.

	Xulosani qisqacha muhimdir	tushunishda xatboshi	o‘qish jarayonida ehtiyyotkorlik bilan o‘qish va o‘tish qismlari bilan ishslash
--	----------------------------------	-------------------------	---

Umuman dars jarayonida “Skimming” metodi quyidagi savollar bilan ishlaydi: Matnning asosiy g‘oyasini tezda qanday qilib aniqlay olasiz? Matnni qachon va qanday qilib ko‘rib chiqishingiz mumkin? Ushbu darsda talabalar darslikdagi muayyan matnlar bilan yoki gazeta va jurnallarning dastlabki sahifasi bilan “Skimming” bo‘yicha o‘qish ko‘nikmalarini o‘rganadilar va bu ko‘nikmalarni qanday ishlatish kerakligini tushunadilar.

“Skimming” matnning asosiy g‘oyalarini birinchi, oxirgi paragraflar va mavzular jumlalarini o‘qib, sahifadagi boshqa tafsilotlarga, masalan, sarlavha, qalin turdagи yoki kursiv, fotosuratlar va boshqalarga qaratadi. “Scanning” sahifani pastga va atrofida ma'lum ma'lumotlarni topish uchun muhim so‘zlarni, dalillarni yoki iboralarni tez va samarali ravishda qidirishda muhim hisoblanadi.

Masalan, barcha talabalarga tegishli matnning nusxasini bering va “Matn nima haqida” so‘rovi bilan savol berishni boshlang. To‘g‘ridan-to‘g‘ri talabalar javoblarni topish uchun maqolani ko‘rib chiqishlari, javoblarini yozib olishlari va tugatilganda qo‘llarini ko‘tarishlari kerak. Boshqa besh savol uchun jarayonni takrorlang. (Agar so‘ralsa, raqobat elementini qo‘sning, zarur bo‘lsa, tez va to‘g‘ri bo‘lgan o‘quvchilarga maktab materiallari kabi kichik sovrinlarni bering). Barcha talabalar barcha vazifalarni bajarib bo‘lgach, javoblarni ko‘rib chiqing.

2.2. Badiiy matnni anglashda “Scanning” metodidan foydalanish

Til sinfida turlicha matn o‘qish tiplari sodir bo‘lishi mumkin. Ulardan biri Braun taklifi bo‘yicha quyidagicha tasniflanishi mumkin¹⁹.

I. Intensiv o‘qish tipi:

¹⁹ Braun P.L. Skimming and Scanning Techniques to Assist EFL Students in Understanding English Reading texts. Indonesia: Indonesian Research Journal in Education, 2010. – P.20.

a. Lingvistik;

b. Mudarija.

II. Ekstensiv o‘qish tipi:

a. Ajratib olish;

b. Ko‘z yogurtirish;

c. Global.

Matnni o‘qishda quyidagi texnikalar mavjud: **intensiv va ekstensiv**. Intensiv o‘qish o‘qishning aniq uslub va strategiyasini o‘qitish va tajriba o‘tkazishda foydalilaniladi. Bunda matn maqsad sifatida ko‘riladi.

Ekstensiv o‘qish o‘z navbatida katta xajmdagi materialni bevosita va erkin o‘qishni o‘z ichiga oladi. Bu maqsadga yetish vositasi sifatida ko‘riladi. Bu o‘z ichiga shunchaki ko‘ngil yozish uchun o‘qish, texnik, ilmiy yoki kasbiy materiallarni o‘qishni oladi. Bu matnning kechki tipi bo‘lib, akademik aniq ikki turdagи o‘qishni o‘z ichiga oladi, yani kalit detallarni topish uchun **ko‘z yogurtirish** va ma’noni topish uchun **ajratib olish**. Nisbatan tez va sifatli o‘qish mustaqil yoki ajratib olish yoki ko‘z yogurtirish global yoki umumiy tushuncha beradi.

“Scanning” matndagi muayyan aniq detallarni aniqlab olishga imkon beradi. Bunda talabalar matndagi eng kichik detaligacha savollar bilan ishlanadi, solishtiriladi, taqqoslanadi. Matndagi muhim qismlarni ajratib olish quyidagi maqsadda amalga oshiriladi:

- parchaning umumiy mazmunini bilish uchun;
- matnni shaklini takrorlovchi parchaning qanday shakllanganligini bilish;
- yozuvchining maqsadini tushunish uchun;
- “Scanning” - shunchaki ko‘z yogurtirib chiqishga nisbatan murakkab vazifa hisoblanadi. Chunki u o‘quvchidan muallif tomonidan berilgan ayrim ma’lumotlarni shunchaki topish emas, balki uni shakllantirish va eslab qolishni taqozo etadi.

“Scanning” - bu ayrim ma’lumotlarni talab qiladigan ko‘z yogurtirib chiqishdan farqli tarzda, muallifning ketma-ketligini kuzatish mumkin.

“Scanning” quyidagi holda qo‘llaniladi:

- ayrim umumiy savollarni o‘qishda ishlatiladi;
- matnga qanday yondoshish kerakligi haqida qarorga kelishda foydalaniladi.

Masalan: matn diqqat bilan o‘qishga arzishini aniqlash uchun;

- o‘quvchiga matndagi har bir so‘zni o‘qimay turib ham mazmunini tushunish mumkinligini anglagan holda ishonchini mustahkamlashda foydalaniladi.

- tez-tez o‘qish tezligi ahamiyatlidir. Bu metod talabani tadqiqotga, anketalashga, o‘qishga, qayta ko‘rib chiqishga, yoddan aytib berishga jalb qiladi. Ajratib olib o‘qish dastlabki tadqiqot va qayta ko‘rib chiqishda foydalaniladi.

- ajratib olib o‘qish bu agar talaba o‘qishni davom ettirmoqchi bo‘lsa, u rivojlantirishni istaydigan malakadir. U ko‘pincha matnni qayta ko‘rib chiqishda ishlatiladi.

“Scanning” metodida o‘qituvchi quyidagi savollar bilan ishlashi va matnning umumiy jihatlarini ochib beruvchi maqsadi, vazifalari kabi kalit so‘zlardan foydalanishi maqsadga muvofiq. Talabalar o‘qishni boshlashdan oldin, talabalar o‘ziga quyidagi savollarni berishi uchun o‘qituvchi ularni yo‘naltirishi lozim.

- Matn qanday auditoriya uchun yozilgan? Bular masalan keng jamoatchilik, texnikaviy o‘quvchilar yoki akademik talabalarmi?

- Matn qanday tipda? Bu masalan rasmiy xat, e’lon yoki qo‘llanmalar to‘plamimi?

- Muallifning maqsadi nima edi? Bu ishontirish, ma’lumot berish yoki yo‘l yo‘riq ko‘rsatish bo‘lganmikin?

“Scanning” uchun mashqlarni boshlashdan oldin quyidagilarni tushuntirishi kerak.

1. Mashqning maqsadi;
2. Matnning qanchalik chuqur o‘qilishi kerakligi.

Talaba matnni quyidagi yo‘sinda o‘qiydi:

- agar sarlavha mavjud bo‘lsa uni o‘qing;

- muqaddimani yoki ilk xat boshini o‘qing;
- keyingi har bir punkdan birinchi gapini o‘qing;
- istalgan sarlavha yoki kichik (qo‘shimcha) sarlavhani o‘qing;
- istalgan surat yoki ostiga chizilgan yoki yo‘g‘on shrift bilan belgilangan iborani ko‘zdan kechiring;
- qisqa xulosani yoki so‘nggi xat boshini o‘qing.

Talabalar alohida so‘zlarda emas gaplarda ifodalangan faktlarni topishi kerak. Albatta tezlikning muhim ahamiyatga ega bo‘lib odatda o‘qituvchi ish uchun vaqt chegarasani qo‘yadi. Ammo ajratib olib o‘qish musobaqa asosida bo‘lishi kerak emas. Talabalar o‘zlarini rivojlantirishi uchun individual qo‘llab quvvatlanishi kerak. Ajratib olib o‘qishni rivojlantirish uchun o‘quvchi juda tez o‘qishi, tegishli savollar va oqibatlar shakllantirishi va yana tez o‘qishi kerak. R.Varing²⁰ takidlaydiki, ajratib olib o‘qishni baholash uchun talabalar berilgan savollarni o‘qib va javob berishgandan so‘ng, “dastlabki qo‘yilgan maqsaddan chetga chiquvchi” savollar berish mumkin. Agar talaba berilgan savollarga to‘g‘ri javob bersa, bu uning matnni judayam diqqat bilan o‘qiganligini anglatadi.

Ajratib olib o‘qish va ko‘z yogurtirib chiqish ba’zida o‘qish usuli, boshqa hollarda malaka deb ataladi.

Ajratib olib o‘qish o‘z ichiga matnni chuqur tahlil qilish va o‘qish bo‘yicha chuqur bilimga egalikni nazarda tutadi. Ko‘z yogurtirib chiqish faqat maqsadga taluqli ma’lumotni olishga qaratilgan ko‘proq cheklangan faoliyat hisoblanadi. P.Braun²¹ takidlaganidek, “Balki qatnashchi uchun ikki eng qimmatli o‘qish strategiyasi va tilni tashuvchisi – bular ajratib olib o‘qish va ko‘z yogurtirib chiqish”.

R.Varing ko‘z yogurtirib chiqish kam murakkablikda bo‘lganligi uchun, u birinchi bo‘lib tanishtirilishi kerak deb taklif qilgan²². Ajratib olib o‘qish esa katta

²⁰ Waring R. Graded and extensive reading – questions and answers.

<http://langue.hyper.chubu.ac.jp/jalt/pub/tlt/97/may/waring.html>

²¹ Braun P.L. Skimming and Scanning Techniques to Assist EFL Students in Understanding English Reading texts. Indonesia: Indonesian Research Journal in Education, 2010. – P.23.

²² Waring R. Graded and extensive reading – questions and answers.

<http://langue.hyper.chubu.ac.jp/jalt/pub/tlt/97/may/waring.html>

tezlikni va ko‘p amaliyotni talab etadi, shuning uchun uni kechroq kiritish kerak. Ajratib olib o‘qish va ko‘z yogurtirib chiqish odatda matnni o‘qishda birga qo‘llaniladi. Masalan, boshida o‘quvchi o‘qishga arziydimi deb qarab ko‘radi keyin diqqat bilan o‘qiydi va ma’lum malumotni ajratib oladi. Talaba shuni bilishi kerakki, u o‘qishini va metodikasini o‘qish maqsadiga moslashtirishi kerak. Insonlar ajratib olib o‘qish va ko‘z yogurtirib chiqishni mashq qilish orqali o‘zlarini uchun muhim bo‘lmagan ma’lumotga diqqat qilmasdan maxsus ma’lumotni saralash va o‘qishni o‘rganishadi.

“Scanning” metodi talabalarning masalan, lug‘atda biror so‘zni qidirishda yoki chop etilgan sahifada ma’lum bir iborani yoki raqamni topishga urinishda foydalananadigan usul sifatida eslatib turiladi. Matn bilan ishslashda ular aniq so‘zlarni, raqamlarni yoki iboralarni topish uchun ko‘zlarini harakatga keltiradi.

“Skimming” va “Scanning” o‘rtasidagi farqlarni aniqlash uchun talabalar bilan murojaat qilinadi. Agar u noma’lum bo‘lsa, “skanning”dan oldin “skimming”dan kelgan fikrni qo‘shing. Misol uchun, ajratib olish siz manbaingizda qidirayotgan ma’lumotlaringiz bor-yo‘qligini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. Manba “Scanning”dan o‘tkazilgandan so‘ng, u batafsilroq ma’lumot olish uchun ko‘zdan kechirilishi mumkin. Talabalarni bu vaqtda qalin yoki kursiv so‘zlarni izlashga, shuningdek, shriftlar (harflar) va tafsilotlarga e’tibor berishni eslatish.

“Scanning” metodida quyidagi o‘yinini taklif qilish mumkin. Ushbu o‘yin uchun uchdan beshta so‘z so‘zini tanlab, ular doskaga yoziladi. Matnda bitta so‘z necha marta paydo bo‘lishini aniqlash uchun tanlovga ega bo‘lishlarini talabalarga aytib bering. Ushbu o‘yinni o‘ynashning yana bir yo‘li – ajratib olish va so‘zlashuvda ishslash uchun, talabalar matndagi notanish so‘zlar bilan ishslashlari, o‘zlarini uchun yangi ma’lumotlarni olishi uchun xizmat qiladi. Bu texnologiyani guruhda – jamoaviy ham bajarish mumkin.

Matndagi ma’lumotlarning faqat bir qismini (masalan, matndagi ism, manzil, vaqt yoki istalgan so‘z) istasangiz, uni tekshirishingiz kerak. Bu so‘zlarni chindan ham o‘qimasdan juda tezlik bilan qarab chiqishni anglatadi. Barcha qilishingiz

kerak bo‘lgan so‘zlarni topishdir. Quyidagi ro‘yxatga qarang. “Scanning” uchun siz quyidagi narsalardan foydalaning:

Matn o‘qish yo‘riqnomasi	Belgilash
Matndagi ismlarni topish	
Matndagi raqamlarni topish	
Matndagi joy nomlarini topish	
Matndagi belgilardan kerakligini ajratib olish	
Vaqt ko‘rsatkichlarini solishtirish	
Lug‘atdan so‘z qidirish	

Matnni o‘qing, uni yozing va fikringizni xotirangizga muxrlashga harakat qiling. So‘zlarni o‘qimang, xulosani ham o‘qimang. Faqat qarang. Agar siz birinchi marta topa olmasangiz, qaytadan urinib ko‘ring. Istagan matndagi so‘zlarni tezlik bilan ko‘zdan kechirib chiqing va xotirangizda saqlang. Sinchiklab o‘rganib chiqishingizdan oldin ko‘p mashg‘ulot bajarishiz kerak, ammo bunga vaqtingiz yo‘q. Agar siz hali o‘qimayotgan bo‘lsangiz, siz hali ham tekshirib ko‘rishingiz mumkin. Siz qog‘ozdagi matndan ismlarni yoki vaqt ko‘rsatkichlari kabi yaxshi bilgan so‘zlarni topishga harakat qiling.

Quyidagi mashq “Skimming” va “Scanning” metodlari orqali tahlil qilinadi.

1. Matnni o‘qing. Matnga sarlavha qo‘ying.

Biz ahl oilamiz!

Mening ismim – Botir. Mening oilam bor. Oilamda 5 kishi bor. Men shifokorman. Turmush o‘rtog‘im – Nigora. U uy bekasi. Mening ikki qizim va o‘g‘lim bor. Katta qizim Nargiza, u talaba. Kichik qizim Nafisa. U o‘quvchi. O‘g‘lim Zafar ham o‘quvchi.

2. Quyidagi bo‘sh o‘rinlarni to‘ldiring.

- a) _____ – Botir.
- b) Oilamda _____.
- c) Nigora_____.

d) Mening _____ va _____ bor.

e) Katta qizim _____, u _____.

f) _____ – Nafisa.

g) _____ Botirning o‘g‘li

h) _____ Botirning katta qizi

3. Matnni qayta o‘qing. Oilangiz haqida gapirib bering. Quyidagi savollarga javob bering.

a) Ismingiz nima?

b) Oilada necha kishisiz?

c) Dadangiz necha yoshda?

d) Dadangiz kasbi nima?

e) Onangizning yoshi nechada? Kasbi nima?

f) Singlingiz bormi, u necha yoshda?

g) Akangizchi?

4. Matnni qayta o‘qing. To‘g‘ri javobni tanlang.

a) Bu mening xonam / yangi

b) Mening xonam yangi / keng.

c) Mening xonamda kompyuter / televizor bor.

d) Stolda daftар / kitob javoni bor.

Badiiy matnning tahlili:

Mastura! Uning qo‘llariday mayin, iliq, mehribon qo‘llar bormi olamda? Uning barmoqlariday nozik, kishining boshini silagandaqalbini nurga to‘ldirib, dilini ravshan qiladigan barmoqlar bormikan dunyoda?

Odatda opa –singil, aka-uka unchalik inoq bo‘lavermaydilar, biroq Mashrab esini taniydiki, qulog‘ida Masturaning mehribon, muloyim ovozi yangraydi.

Ilgari,Mastura turmushga chiqmasdan burun, Gulsum opa yoki A‘zam akaning taziqi o‘tgan zamonlarda yoki biror gunoh qilib qo‘yib kaltak yeish xavfi tug‘ilgan paytlarda, Mastura bilan Mashrab birga berkinishar, g‘azab va kaltakni birga baham ko‘rishardi.

Masturaning sevgisi, chidami, hijron dog‘lari uning o‘ziday pok, chiroyli, samimiy, ehtimol, shuning uchundir, Mashrab vafosizlik haqidagi kitoblarni o‘qisa, yo erkaklar og‘zidan xotin-qizlar haqida shaloq gaplar eshitsa, esiga hamisha Mastura tushadi-yu, butun vujudi isyon ko‘taradi, bunday gaplarning birortasiga ishonmaydi.

(O. Yoqubov)

Guruhlarga bir daqiqa vaqt berildi va bu parchaga sarlavha topdilar.

Zukkolar: Opaning mehri

Odillar: Mehr

Ziyraklar: O‘zbek ayoli

Oqillar: Bolalik xotirasi

2-topshiriq. Huddi shu matnni endi “scanning” metodi orqali tahlil qilishadi. Har bir guruhga alohida- alohida topshiriq berladi.

zukkolar matnni bog‘lovchi vositalarni, ziyraklar matndagi masturaning sifatlarini, odillar shaxs otlarini, oqillar esa matndagi shaxs nomlarini belgilaydilar.

Zukkolar	Ziyraklar	Odillar	Oqillar
1.uning	1.mayin, iliq, mehribon(qo‘llari)	1.aka- uka	1.Mastura
2. biroq	2.pok	2.opa-singil	2.Mashrab
3.balki	3.chiroyli	3.erkaklar	3. A’zam aka
4.yo, yoki, -yu	4.samimiy	4.xotin-qizlar	4.Gulsum opa

Demak, “Skimming” va “Scanning” metodlari matn ustida ishlashga doir metodlar hisoblanib, uni tez va oson tushunishga yordam beradi. “Skimming” odatda matn haqida umumiy fikrni olish uchun tezroq o‘qiydigan usulni anglatsa, “Scanning” esa matndagi muayyan detallarni aniqlab olishga imkon beradi. Boshqa tahlil usullaridan farqli jihat shundan iboratki, ularda matn mazmuni yetarlicha tushuniladi, asoslanadi va isbotlanadi. Shu bilan birga matndagi kichik detal, ibora, turli fakt va atoqli otlar ya’ni butun bir matnni tashkil qiluvchi barcha elementlar tahlildan chetda qolmaydi. Bu metodlardan foydalanishning eng muhim

afzalliklaridan yana biri – bu o‘quvchi, talabalarning vaqt yetishmovchiligi paytida matnni qisqa vaqtda aniq tahlil qilishga ko‘maklashadi. Bu ikki metod o‘zbek tili va adabiyotiga yangi tajriba sifatida tavfsiya etilayotgan bo‘lsa-da, tez orada matn tahlilida eng yetakchi qo‘llaniladigan metodlar orasidan joy oladi.

III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI

3.1. Akademik litsey 2-bosqich uchun kichik guruhi bilan ishlash metodi asosida tashkil qilingan darsning ishlanmasi va texnologik xaritasi

O‘quv fanining nomi: Hozirgi o‘zbek adabiy tili.

Mavzu nomi: Sinonimlar va ularning uslubiy xususiyatlari.

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy: O‘quvchilarda sinonim va uning uslubiy xususiyatlari haqida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish.

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda nutqiga e’tiborli bo‘lish ko‘nikmalarini tarbiyalash.

c) rivojlantiruvchi: o‘quvchilarda o‘z nutqlarida so‘z ma’nolaridan to‘g‘ri foydalana olishga o‘rgatish.

Kompetensiya:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: darslik materiallaridan va televizor, radiodan zarur ma’lumotlarni topa olish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi: mustaqil o‘qib-o‘rganish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi: Sinf va sinfdan tashqari ishlarda faol ishtirok etish.

O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish*): o‘qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni tinglab tushuna oladi va topshiriqlarini bajaradi.

Lingvistik kompetensiya: mavzuga oid so‘zlar va iboralarni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llay oladi.

Darsdan kutilayotgan natijalar – mavzuni o‘zlashtirgandan so‘ng o‘quvchilar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar:

1. Sinonimlar haqida tushunchaga ega bo‘lishadi va uni ko‘p ma’noli so‘zlardan farqini bilib olishadi.

2. Sinonimlarning turlari va affiks sinonimlar haqidagi bilimlarga ega bo‘lishadi va ularning paydo bo‘lish sabablarini bilib olishadi.

3. Sinonimlar uyasi yoki qatori va dominantasi aniqlash malakasiga ega bo‘lishadi.

4. Nutqda leksik sinonimlardan foydalanishning ahamiyati haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishadi.

Ta‘lim metodlari: Kichik guruhlar bilan ishslash metodi, “Skimming”, “Scanning” metodlari.

Baholash metodlari: guruhniga rag‘batlantiruvchi va jarima kartochkalari bilan, faol ishtirok etgan guruh a’zosini esa individual tarzda reyting ko‘rsatkichi bilan baholash.

Axborot manbalari va texnik vositalari: Darslik, qo‘srimcha o‘quv adabiyotlari, O‘zbek tilining izohli lug‘ati, kompyuter va proyektor vositasida slaydlar namoyishi.

Dars turi: Aralash.

Darsga ajratilgan vaqt miqdori: 80 daqiqa.

Uyga vazifa: 137-mashq.

Ta‘lim berish texnologiyasi

Mavzu:	Sinonimlar va ularning uslubiy xususiyatlari	
O‘quvchilar soni: 30 ta	Vaqti:	80 daqiqa
Mashg‘ulot shakli	Amaliy dars	
Mavzu rejasi:	<ul style="list-style-type: none">*Sinonimlar haqida ma’lumot.*Sinonimlarning turlari va affiks sinonimlar.*Sinonimlar uyasi va dominanta.*Nutqda leksik sinonimlardan foydalanishning ahamiyati.	

Darsning maqsadi:

ta'limiy maqsad: Umumta'lim maktablari ona tili darslarida sinonimlar yuzasidan uzoq o'tilganlarni qayta xotirlash orqali o'quvchilrda malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.

tarbiyaviy maqsad: mashqlar asosida o'quvchilarda maktabda o'r ganilgan boshqa fanlarini ham qayta xotirlash orqali vatanga va fanlarga muhabbat ruhida tarbiyalash.

rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, darslik va boshqa qo'shimcha adabiyotlar ustida ishlashga o'rgatish.

Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:
Sinonimlar haqida ma'lumot berish. Sinonimlarning turlari va affiks sinonimlar haqida ma'lumot berish. Sinonimlar uyasi yoki qatori va dominant haqida tushuncha berish. O'quvchilarga "Skimming" va "Scanning" metodlarini tushuntirish	Sinonimlar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Sinonimlarning turlari va affiks sinonimlar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar va amaliyotda qo'llay oladilar. Sinonimlar uyasi yoki qatori va dominant haqida tushuncha oldilar. "Skimming" va "Scanning" metodlaridan foydalanishni o'rganadilar
Ta'lim berish usullari:	Tushuntirish, ko'rsatish, og'zaki so'rov, test
Ta'lim berish shakllari:	Kichik guruhlarda ishlash
Ta'lim berish vositalari:	Darslik, o'quv qo'llanma, tarqatma materiallar.
Ta'lim berish sharoitlari:	Kerakli jihozlar bilan ta'minlangan xona
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat, savol-javob

Darsning texnologik xaritasi


T/r	Mashg‘ulot bosqichlari	Ajra-tilgan vaqt	Mashg‘ulot mazmuni	Ta’lim metodlari	Ta’lim vosita-lari
1.	Tashkiliy qism	5 daq.	Salomlashish, davomatni aniqlash		
2.	Kirish qismi (motivatsiya)	10 daq.	Uyga berilgan vazifa (129-mashq) asosida suhbat uyuştırish, lug‘aviy omonimlarni topilib ma’nosini izohlandi.	Kichik guruhlar bilan ishlash, “aqliy hujum” texnologiyasi	Darslikdagi mashq
4.	Mustahkam lash (qo‘llash)	20 daq.	Darslikdagi 130-, 131-, 135-mashqlarni bajartirish, matndagi sinonim so‘zlarni toppishda orqali “Klaster”, “Venn”, “Skimming”, “Scanning” metodlariidan foydalanildi.	“Klaster” va kichik guruhlar bilan ishlash, texnologiyasi, ijodiy xarakterdagi mashq	Darslikdagi mashq va topshiriqlar
5.	Yakuniy qism	5 daq.	136- va 137-mashqlar uyga vazifa qilib beriladi.		

O‘qituvchi: A.Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti talabasi G‘aniboyeva Ziroatxon

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

- A) Salomlashish;
- B) Davomatni aniqlash;
- C) O‘quvchilar darsga hozirligini tekshirish;
- D) Kun hikmatini keltirish va tahlil qilish



Baholash mezoni va ko‘rsatkichlari

Guruhrilar	Savolning to‘liq va aniq yoritilishi 0-5ball	Misollar bilan muammoga yechim toppish 0-5ball	Guruh a‘zolarining faolligi 0- 5ball	Jami ball
------------	---	--	---	-----------

15-13 ball – “a’lo”

12-10 ball – “yaxshi”

9-6 ball – “qoniqarli”

O‘tilgan mavzuni so‘rash: Mavzuni mustahkamlash maqsadida guruhdagi o‘quvchilar uch guruhga bo‘linadi va 1-guruh - “Topqirlar”, 2-guruh - “Zukkolar”, 3-guruh “Bilimdonlar” deb nomlanadi. Uyga berilgan vazifa, ya’ni 127-mashqdagi matn o‘qitiladi, 9t a xatboshi guruh o‘quvchilari tomonidan ifodali o‘qitilib, undagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar va so‘z birikmalarining leksik ma’nolari va qo‘srimcha

ma'nolarini undagi omonim so'zlar izohlab berish talab qilinadi. Har bir guruh ushbu o'zbek xalq askiyasi haqidagi fikrlarni tahlil qilishadi, shuningdek, yana xalq og'zaki ijodidan namunalar keltirishib, ularni ham sharhlashadi.


Yangi mavzuning bayoni: Yangi mavzuni tushuntirish ishi, dastavval, darslikning 73-betdagи 1-va 2-topshiriqlarni bajartirish bilan boshlanadi.

73-betdagи 1-topshiriq: yemoq, iste'mol qilmoq, tanavvul qilmoq so'zлari ishtirokida gaplar tuzish, ularning umumiyligi va farqli tomonlarini ayting, deb beriladi. Bunda o'quvchilar neytral so'z bo'lgan *yemoq* so'ziga gap tuzish bilan boshlanadi. *Men abetda ovqat yedim.* So'ng esa istemol qildim so'ziga: *Aholi tomonidan ko'p istemol qilinadigan go'sh mahsulotlarining narhi kundan kunga oshib bormoqda.* Oxirgisiga esa: *Biz tushlikda ovqatdan so'ng shirinlik tanovul qildik.* Birinchi gap ko'proq so'zlashuv uslubiga xos, ikkinchi gap esa ilmiy-ommabop xarakterga ega, so'ngi gapimizda badiiy uslub elementlari uchraydi.

O'quvchilar bu mashqni bajarish davomida nafaqat gap tuzish ko'nikmalari va so'zdan- so'zning farqiga yetishadi. Buning uchun ularga 1 daqiqa vaqt beriladi. Diagramma orqali tushuntirib berishadi.




Shundan so‘ng 2-topshiriqda berilgan ***qaramoq*** so‘zining ma’nodoshlarini topib, ularni gap ichida keltirishadi va izohlashadi. Dastavval, ***qaramoq*** so‘zining ma’nodoshlarini (*boqmoq, nazar solmoq, ko‘z tashlamoq, qiyo boqmoq, tikilmoq, termulmoq*) “Izohli lug‘at”dan topishadi. So‘ng ularning har biriga bittadan gap tuzishadi. O‘quvchilar bu vazifalarni maktab ona tili darslarida o‘rganganlari asosida bajaradilar. Shuning uchun ham ularni qayta xotirlash xarakteridagi mashqlar sirasiga kiritish lozim.



Darslikning 73-74-sahifalaridagi reja va nazariy qoidalar asosida slaydlar tayyorlanib yangi mavzu tushutiriladi va sinonim so‘zlarning paydo bo‘lish sabablari, sinonim va ularning turlari haqidagi dastlabki bilimlar bayon qilinadi.

Bir umumiyl ma’noni ifodalovchi so‘z yoki qo‘shimchalarga sinonimlar deyiladi. O‘zaro sinonimik munosabatda bo‘lgan so‘z va qo‘shimchalar sinonimlar uyasi yoki sinonimlar qatori deyiladi.

Tilimizda bir ma’noni bir necha so‘zlar yoki affikslar yordamida ifodalash mumkin. Masalan: inson bosh qismining old tomoni quyidagi singari so‘zlar orqali ifodalanadi.



kabi qo'shimchalar yordamida bir ma'noni ikki xil shaklda yuzaga chiqarish imkoniyati ham uchrab turadi.

So'z maqomidagi sinonimlar lug'aviy (leksik) sinonimlar, qo'shimcha maqomidagi sinonimlar esa affiks sinonimlar sanaladi.

Lug'aviy sinonimlar bir umumiyligi ma'noni bildirsa ham, lekin ularning ma'no darajasi, ijobiy yoki salbiy bahoga egaligi, ma'lum uslubga xoslanishi bilan bir-biridan farqlanadi. Nutqiy jarayonda so'zlovchi maqsadiga muvofiq ravishda sinonimlar qatoridagi so'zlardan birini tanlaydi. Masalan, yuqorida keltirilgan sinonimlar qatorida *yuz* so'zidan chap tomondagi to'rtta so'zda (*oraz, uzor, ruxsor, chehra*) ijobiy baho va uchtasida (*oraz, uzor, ruxsor*) badiiy uslubga xoslanish belgisi bo'lsa, o'ng tomonidan beshta so'zda (*bet, aft, bashara, nusxa, turq*) salbiy baho munosabati mayjud va bu salbiy baho ularda darajalanib, kuchayib boradi (*betga* nisbatan *aftda* salbiy baho kuchliroq, turqda esa hammasidan kuchliroqdir. Demak, bu beshta so'zda salbiy baho kuchayib boradi).

Har qanday uslubiy xoslanish va so'zlovchining bahosidan xoli bo'lgan sinonimlar qatori a'zosi **dominanta** (uslubiy xoslanish va baho bildirishga ko'ra neytral) sanaladi. Demak, yuqoridaq sinonimlar qatorida **yuz** dominanta sanaladi.

Sinonimlar qatori a'zolaridan nutq jarayonida o'rinni foydalanish so'zlovchining maqsadini aniq, ravon va ta'sirchan ifodalashda katta ahamiyatga ega.

Yangi mavzu bayon qilingandan so'ng, quyidagi jadval guruhlarning har biriga havola etiladi. ("Tushunchalar tahlili" metodidan foydalaniadi).

t-r	Tushuncha	Mazmuni
1.	Sinonim	
2.	Sinonimlar qatori	
3.	Lug'aviy sinonimlar	
4.	Dominanta	
5.	Omonim	
6.	Antonim	

Guruhlar taqdimoti o‘tkazilgandan so‘ng ekranda quyidagi jadval ko‘rsatiladi. Guruhlarning javoblari to‘g‘ri javobga to‘liq yoki qisman to‘g‘ri kelishiga qarab rag‘batlantiriladi.

t-r	Tushuncha	Mazmuni
1.	Sinonim	Bir umumiy ma’noni ifodalovchi so‘z yoki qo‘shimchalar
2.	Sinonimlar qatori	O‘zaro sinonimik munosabatda bo‘lgan so‘z va qo‘imchalar
3.	Lug‘aviy sinonimlar	So‘z maqomidagi sinonimlar
4.	Affiks sinonimlar	Qo‘shimcha maqomidagi sinonimlar
5.	Dominanta	Har qanday uslubiy xoslanish va so‘zlovchining bahosidan holi bo‘lgan sinonimlar qatori a’zosi
6.	Antonim	O‘zaro zid ma’noli so‘z va qo‘shimchalar

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash: Darslikdagi 130-, 135-, 136-mashqlarni bajartirish, matnni “Skimming”, “scanning” metodlri asosida tahlil qilish vazifa qilib beriladi.

130-mashq. Matnga “Skimming” metodi orqali sarlavha qo‘yiladi, so‘ng “Scanning” metodi orqali undan sifat so‘z turkumiga oid so‘zlarni topishadi. Har bir sifatning yoniga uning sinonimlarini ham yozib borishadi.

Amir Temur shaxsini idrok etish tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni ulug‘lash tarix qa’riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizga ishonchimizni mustahkamlash demakdir”.

Tarix — haqiqat mezoni, jarchisi. U alday olmaydi, aldanmaydi ham. Tarixiy jarayonlarni yoshlarimiz, butun mamlakat ahli yangi ong hissi bilan qabul qilmoqda. Amir Temur ham haqli ravishda ota yurti Shahrisabzda qurdirgan Oqsaroy peshtoqiga “Qudratimizga shak-shubhangiz bo‘lsa, biz qurdirgan binolarga boqing”, deb yozdirib qo‘ygan edi. Bu buyuk sarkardalik, o‘z kuch-

qudrati, mustaqilligiga ishonch, qat’iyat ramzi edi. Demak, Turonzamin yoshlari, ahli omma uchun ibratli iboralar bu! “Tuzuklar”da o‘qiyimiz: “Dilda e’tiqod butun bo‘lsa, aslo naslimiz yo‘qolmagay, tilimiz unutilmagay, e’tiqod susaysa, til emas, imon ham unutilgay...” Yo ‘lboshchimiz jismonan baquvvat. Ma’naviyati etuk bo‘lishiga alohida ahamiyat beradi. Bu borada bobomiz Amir Temurning olib borgan ma’naviy-ma’rifiy ishlari ibratlidir. Chunonchi, Sohibqiron oila, nikoh, millat tozaligiga va sofligiga katta e’tibor bergen.

Matnga guruhlar quyidagicha nomlar qo‘yishdi.

Topqirlar: **Buyuk Temur “Tuzuklari”**

Zukkolar: **Sohibqiron merosi**

Bilimdonlar: **Moziy tayanchi**

Guruhlar matnni nomlab bo‘lganlaridan so‘ng keyingi topshiriqqa o‘tishdi. Matndagi sifatlar aniqlanib sinonimlari ham topiladi. Birinchi to‘liq va to‘g‘ri topshiriqni bajargan jamoaga rag‘bat beriladi.

Guruhlar	Topqirlar	Zukkolar	Bilimdonlar
Qo‘yilgan sarlavha	Buyuk Temur “Tuzuklari”	Sohibqiron merosi	Moziy tayanchi
Sifatlar va ularning sinonimlari	Chuqr- Buyuk- <i>ulug‘</i> Yangi Haqli- Butun- <i>ko ‘p</i> Baquvvat- <i>kuchli</i> shak-shubhangiz yetuk ibratli	Buyuk- <i>ulkan</i> Yangi- Haqli Butun Baquvvat- <i>kuchli</i> shak-shubhangiz toza- <i>pok, oq-</i>	Haqli Butun- <i>to ‘liq</i> baquvvat shak-shubhangiz yetuk ibratli sof- <i>toza, pok</i> ma’naviy-ma’rifiy

Yuqoridagi mashq bajarib bo‘lingandan so‘ng 132-mashq bajariladi (Ustinchalar davom ettiriladi).

Sifat sinonimlar

Gavdali.....jussali
barvasta.....norg‘ul
barzangi....._____

Fe'l sinonimlar

Gangimoq.....dovdiramoq
esankiramoq....kalovlanmoq
talmovsiramoq²³...._____

135-mashq. Shukur Qurbanning “Ay, ona til!” she’rini yozing va yod oling. So‘ngra she’rda ishlatilgan: bandalari, on, xiyonat, kuchli, yarog‘, aynimadi, hasadgo‘y kabi so‘zlarning sinonimik qatorlarini ham yozing.

Bu mashqda ham “Skimming”, “Scanning” metodidan foydalanib ushbu she’r tahlilga tortiladi. Har bir guruhga alohida vazifa beriladi:

Dastlab barcha guruhga umumiy savol beriladi.

She’rga ko‘z yogurtirib chiqing va “Ay, ona til!” sarlavhasi o‘rniga siz qanday nom tanlagan bo‘lar edingiz?

So‘ng har bir guruhga alohida vazifa beriladi.

Topqirlar: she’riy matndagi sinonim bo‘la oladigan so‘zlarni topib berishadi (bir daqiqa davomida).

Zukkolar: birinchi guruh topib bergen so‘zlarning sinonimik qatorini aniqlab berishadi (bir daqiqa davomida).

Bilimdonlar: bu topshriqni davom ettirib sinonimik qatorlardagi so‘zlarning antonimini topadilar.

AY, ONA TIL!

Seni xudo bergen menga, mening xalqimga,
Bandalari yo‘qotolmas, tortib ololmas.
Seni xato baholagan — kulgi har kimga,
Senga ola qarabdi kim, ko‘r bo‘lmay qolmas.

²³ Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли лугати. – Тошкент: 1974, - Б.234.

Senda Davlat maqomi ne, yaralganing on
 Xalq maqomin olgansan-ku, qutlug‘, poyidor.
 Shuhratparast zotmidingki, har turfa nishon
 Ko‘kragingga ilib olsang qator va qator.
 Balli! Hanuz xiyonatning yuzlari qora,
 Balli! Hanuz sadoqatdan gurkiraydi qalb
 Ohanglaring dunyodagi eng kuchli yarog‘,
 Shu yarog‘-la axir asrab-avaylanar xalq.
 Chegaralar yo‘qdir senga, sarhadlar osha
 Sen tufayli aynimadi qancha bag‘irdosh.
 O‘zbekligim, ay, ona til, dilingda yashar,
 Til ostiga joylanganday qimmatbaho tosh.
 Senga faqat hasadgo‘ylar qilar yovqarash,
 Seni manfur bosqinchilar yoqtirmas faqat.
 Ay, ona til, o‘zing uchun o‘zing ham kurash,
 Ay, ona til, g‘animlarga aylama shafqat.
 “Nun” ko‘zlarining kattaroq och, “dol”laring yoy qil,
 “Alif”laring o‘q qilib ot ular ko‘ksiga.
 Ma’nolaring namoyon et, yovlarni loy qil,
 Yetmish olam mo‘jizasini ko‘rsat ko‘zimga.

(*Sh. Qurbon*)

Topqirlar	Zukkolar	Bilimdonlar
On	Vaqt, payt, davr	
Bandalar	Odam, inson, avom	Xudo (kontekstual)
Xiyonat	Gunoh,	Sadoqat
Kuchli	Baquvat, buyuk, qudratli	Ojiz
Yarog‘	Qurol, aslaha,	
Aynimadi	Achimadi, eskirmadi	Yangimas
Hasadgo‘y	Ichi qora, kuykanak ²⁴	Sofdil

Darsni yakunlash:

1. Baholash: Guruhlar rag‘batlantiruvchi va jarima kartochkalari bilan, faol ishtirok etgan guruh a’zosini esa individual tarzda reyting ko‘rsatkichi bilan baholanadi.

2. Uyga vazifa berish: 136- va 137-mashqlar uyga vazifa qilib beriladi. Bu mashqlar ham “Skimming” va “Scanning” metodlaridan foydalаниlib tahlilga tortiladi

²⁴ Ҳожиев А. Узбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Тошкент: 1974. – Б. 234.

3.2. Leksikologiya bo‘limi yuzasidan olib borilgan tajriba – sinov ishlari tahlili va natijalari

Darslik asosida an'anaviy tarzda o‘tilgan darslar bilan bitiruv malakaviy ishda keltirilgan innovatsion texnologiyalar va qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik hamda ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlar tizimidan foydalanilgan noan'anaviy dars shakli orasidagi farqyaqqol seziladi. Biz Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi O‘zMU qoshidagi Sirojiddinov nomli akademik litseyning 205- guruhida tadqiqot ishlari olib bordik. Tadqiqot ishimizga 25 nafar o‘quvchini jalg qildik. Tadqiqotimizda quyidagi vazifalarni amalga oshirdik:

II kurs “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligidan foydalanib, leksikologiya bo‘limi bo‘yicha 15 talik takrorlash testlari ishlab chiqdik va o‘quvchilarga taqdim etildi:

1. So‘z va uning ma’nolarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi?
 - A) Fonetika;
 - B) Leksikologiya;
 - C) Frazeologiya;
 - D) Orfografiya.
2. Ma’lum ma’no bilan bog‘langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovishlar birikmasi bu?
 - A) Gap;
 - B) So‘z birikmasi;
 - C) So‘z;
 - D) Leksema.
3. Nutq jarayonida ikki va undan ortiq ma’noda qo‘llaniluvchi so‘zlarga nima deyiladi?
 - A) Ko‘p ma’nolilik;
 - B) Polisemiya;
 - C) Bir ma’nolilik;
 - D) A va B.

4. “Tosh” so‘zi qanday so‘z?

- A) Bir ma’noli so‘z;
- B) Ko‘p ma’noli so‘z;
- C) Atash ma’nosiga ega bo‘lmagan so‘z;
- D) Yordamchi so‘z

5. Ma’no ko‘chishining qanday turlari mavjud?

- A) metonimiya, metafra;
- B) metonimiya, sinekdoxa;
- C) metafora, vazifadoshlik;
- D) b.j.t

6. “Qozonning qulog‘i”, “samolyotning dumi” birikuvlardida qanday ma’no ko‘chishi bor?

- A) vazifadoshlik;
- B) sinekdoxa;
- C) metonimiya;
- D) metafora

7. Metonimiya – bu?

- A) o‘xshashlik asosida ma’no ko‘chishi;
- B) aloqadorlik asosida ma’no ko‘chishi;
- C) qisim orqali butun, butun orqali qismni ifodalash;
- D) to‘g‘ri javob yo‘q.

8. Atamalarni yaratish tamoyillari va ularni tartibga solish muammolari bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslik bo‘limi?

- A) ritorika
- B) onomastika;
- C) terminologiya;
- D) orfoepiya.

9. Olampanoh, padari buzrikvor, volidayi muhtarama, manzirat qilmoq kabi leksemalar qanday leksema hisoblanadi?

A) neytral leksika;

B) jargonlar;

C) sotsial chegaralangan so‘zlar;

D) shevaga hos so‘zlar.

10. Eshik (hovli, uy), shoti (narvon), takya (do‘ppi) kabi so‘zlar qanday so‘zlar sanaladi?

A) neytral leksika;

B) jargonar;

C) sotsial chegaralangan so‘zlar;

E) shevaga xos so‘zlar.

11. Omonimlar shakliga ko‘ra necha turli bo‘ladi?

A) 2 xil;

B) 3 xil;

C) 4 xil;

D) 5 xil.

12. Kamina 80 yoshni qoralayapman, mustaqil davlat O‘zbekistonning ardoqli farzandiman. Ushbu gapda omonimlik xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zni toping?

A) kamina;

B) qoralayapman;

C) ardoqli;

D) mustaqil.

13. Bir ma’noni ifodalovchi so‘z yoki qo‘shimchalarga...

A) omonimlar;

B) antonimlar;

C) sinonimlar;

D) paronimlar.

14. *Oraz, uzor, ruxsor, yuz, aft, bashara* sinonimlari ichida dominanta so‘zni belgilang?

- A) ruhsor;
- B) chehra;
- C) oraz;
- D) yuz.

15. Zid ma'noli qo'shimchalarni ko'rsating?

- A) -li/bo-;
- B) -siz/no-;
- C) -li/-siz;
- D) -siz/ no-.

Guruh a'zolaridan olingan test materiallari yig'ib olindi. Ular tekshirilib, ko'rsatkichlar aniqlandi va quyidagi jadvalga joylashtiriladi.

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
-	-	-	-	1	1	2	4	8	6	1	2	-	-	-

Ko'rsatgich biz kutganday emas, o'rta darajada bo'lganligi sababli biz bu guruh bilan leksikologiya bo'limi yuzasidan qo'shimcha mashg'ulotlar olib bordik. Mashg'ulotlarda biz an'anaviy test topshiriqlaridan chekingan holda badiiy matn tahlilidan foydalandik.

Matn tahlilida savollar quyidagicha qo'yildi:

1. Hikoyaga nima uchun "O'g'ri" deb nom qo'yilgan deb o'ylaysiz? Uch fakt bilan izohlang.
2. Matnda ma'no ko'chishining qanday turlari mavjud;
3. Atamashunoslikka oid terminlar bormi? Bo'lsa ko'rsating.
4. Matndagi omonim so'zlar lug'atini tuzing;
5. Matndagi sinonim so'zlarni tahlil qiling;
6. Hikoya ichidagi antonimlarni toping;
7. Matndagi bir va ko'p ma'noli so'zlarni tushuntiring.

O‘G‘RI

Kampir tong qorong ‘isida xamir qilgani turib ho ‘kizidan xabar oldi. Ho ‘kiz yo ‘q, og ‘il ko ‘cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho ‘kizi yo ‘qolmasin. Bir qop somon, o ‘n-o ‘n beshta xoda, bir arava qamish - uy, ho ‘kiz topish uchun necha zamonalr qozonni suvga tashlab qo ‘yish kerak bo ‘ladi.

Odamlar dod ovoziga o ‘rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi... Ammo kampirning dodiga odam tez to ‘plandi. Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og ‘il eshigi yonida turib dag‘ - dag‘ titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko ‘zlar javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko ‘rmaydi. Xotinlar o ‘g‘rini qarg‘aydi, it huradi, tovuqlar qaqqag‘laydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho ‘kiz sig ‘ishiga aql ishonmasligi to ‘g‘risida kishilarga gap ma ‘quillaydi.

Qobil boboning qo ‘shnisi - burunsiz ellikboshi kirdi. U og ‘ilga kirib teshikni, ho ‘kiz bog‘langan ustunni diqqat bilan ko ‘zdan kechirdi; negadir ustunni qimirlatib ham ko ‘rdi, so ‘ngra Qobil boboni chaqirdi va past tovush bilan dedi:

- *Ho ‘kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi!*

Uning og ‘ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bag ‘ishlagan edi, bu so ‘zi haddan ziyod sevintirdi. Chol yig ‘lab yubordi.

- *Xudo xayr bersin... Ola ho ‘kiz edi...*

Odamlar, o ‘g‘ri devorni qachon va qanday asbob bilan teshgani, ho ‘kizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qaysi bozorda sotishi mumkin ekanligi to ‘g‘risida bahslasha-bahslasha tarqaldi. G‘ovur bosildi. Qobil boboning kampiri yig ‘idan to ‘xtab, ellikboshini duo qila ketdi.

Ellikboshi o ‘g‘ri teshgan yerni yana bir ko ‘rdi. Qobil bobo qo ‘l qovushtirib uning ketidan yurar va yig ‘lar edi.

- *Yig ‘lama, yig ‘lama deyman! Ho ‘kizing oqposhsho qo ‘l ostidan chiqib ketmagan bo ‘lsa, topiladi.*


Ellikboshi ho ‘kizni juda naqd qilib qo ‘ydi - go ‘yo u ko ‘chaga chiqsa bas - ho ‘kiz topiladi. Bu “xudo yarlaqagur” shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo ‘lish uchun ozmuncha pul

sochganmi? Mingboshining bir o‘ziga yetti yuz bog‘ beda, bir toy bergani ma’turn. Poshsholikdan oylik yemasa! Qobil bobo hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshiga berdi, yana qancha duo qiddi. Ellikboshi beto ‘xtov aminga xabar qil-moqchi bo‘lib chiqib ketdi.

Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo‘ldi. Quruq qoshiq og‘iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo‘ladi? Berganga bitta ham ko‘p, olganga o‘nta ham oz. Chol-kampir kengashib shunday qarorga kelishdi: bu chiqim oxirgi va ho‘kizni bo‘ynidan bog‘lab beradigan chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqlidan emas.

(A.Qahhor)

Darslik asosida an’anaviy tarzda o‘tilgan darslar bilan bitiruv malakaviy ishda keltirilgan innovatsion texnologiyalar va qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik hamda ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlar tizimidan foydalilanilgan noan’anaviy dars shakli orasidagi farq o‘quvchilar orasida olib borilgan so‘rovnama javoblarida aks etdi. Keyingi o‘zlashtirish darajasini diagramma asosida taqdim etamiz. Matn bilan ishlashda o‘quvchilar testga qaraganda ancha faol bo‘ldilar va yaxshi ko‘rsatkichga erishdilar.



Leksikologiya bo‘limini o‘qitishga oid darslarning noan’anaviy tarzda tashkil etilgan guruhdagi baholangan o‘quvchilar soni an’anaviy tarzda tashkil etilgan guruh o‘quvchilari soniga qaraganda ko‘proqni tashkil qildi. Shularga

tayangan holda leksikologiya bo‘limini o‘qitishga oid darslarni nisbatan innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilgan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga o‘quvchilarga yangi mavzuni tushuntirib bo‘lgandan so‘ng mavzuni mustahkamlash uchun badiiy asardan parchalar berib, tahlil qilish ko‘nikmalarini o‘sirish lozim. Tajriba–sinov ishi o‘tkazilganda shunga amin bo‘ldikki, o‘quvchilar o‘zlariga noma’lum bo‘lgan yangi matn bilan ishlashga qiziqish bildirishdi va darslarda faol ishtirok etishdi.

XULOSA

Bitiruv malakaviy ishi bo‘yicha quyidagi xuloalarga kelindi:

Matn o‘qitish texnologiyasi mazmuniga ko‘ra maktablarda turli matnlarni o‘qitishning dolzarb muammolarini aks ettiruvchi matnlar to‘plami sifatida beriladi, bu nuqtai nazardan, texnologiya – ochiq tizim, uning kengayishi yoki qisqarishi bo‘lg‘usi kasb egalarining kommunikativ ehtiyojlari bilan belgilanadi.

Matn bilan ishslash malakasini shakllantirish jarayonining o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda o‘quvchiga:

1. Nutqiy vaziyatga yo‘naltirish, nutqiy ifodani tushunishni va barcha darajadagi til vositalarini tanlash qanday rejalashtirilganligini anglashni o‘rgatish muhimdir.

2. Tanlangan til materiallari matn mazmuni, muloqot sohasi va muhitiga muvofiq tarzda qanday ifodalanganini tushuntira olishni, ya’ni matnni nutqiy, kommunikativ, strukturaviy-kompozitsion, strukturaviy-mazmuniy nuqtai nazardan to‘g‘ri tushunishni, shuningdek, matnning qurilishi va mazmunini kommunikativ sifatlari: aniqlik, mantiqiylilik, ifodalilik, maqsadga muvofiqlik nuqtai nazaridan tahlil qila olishni o‘rgatish joiz.

Maktab va akademik litsey ona tili ta’limida qo‘llaniladigan qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik va ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlarning mazmuni va mohiyati, tatbiq etish yo‘l-yo‘riqlari yuqoridagi innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilsa, samaradorlikka erishish imkoniga muvaffaq bo‘ladi. Bajariladigan har bir mashq va topshiriq innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilsa, o‘quvchilar faolligi yuzaga keladi va bu darsning yanada samarador bo‘lishini ta’minlaydi.

“Skimming” aniq ma’lumot olish uchun texnik, ilmiy va kasbiy materiallar bilan qo‘llaniladi, matnga ko‘z yogurtirib chiqish bu aniq ma’lumot qidiruviga e’tiborni jamlagan holda tez o‘qish, ko‘z yogurtirib chiqish ko‘zning tez xarakatini o‘z ichiga oladi. Bunda ko‘zning harakati to‘g‘ri chiziqli bo‘lishi shart emas, kerakli ma’lumotni topmaguncha ko‘z xaotik harakatlanadi, ma’lumot, simvol,

formula va ibora kabi ma'lumotning ma'lum bir qismi kerak bo'lganda qo'llaniladi. O'quvchi izlaganda topadigan predmet qanday ko'rinishda ekanligini biladi.

“Scanning” matndagi muayyan aniq detallarni aniqlab olishga imkon beradi. Bunda talabalar matndagi eng kichik detaligacha savollar bilan ishlanadi, solishtiriladi, taqqoslanadi.

“Scanning” - shunchaki ko‘z yogurtirib chiqishga nisbatan murakkab vazifa hisoblanadi. Chunki u o‘quvchidan muallif tomonidan berilgan ayrim ma'lumotlarni shunchaki topish emas, balki uni shakllantirish va eslab qolishni taqozo etadi.

“Scanning” ayrim umumiy savollarni o‘qishda ishlatiladi, matnga qanday yondoshish kerakligi haqida qarorga kelishda foydalaniladi.

Leksikologiya bo‘limini o‘qitishga oid darslarning noan’anaviy tarzda tashkil etilgan guruhdagi baholangan o‘quvchilar soni an’anaviy tarzda tashkil etilgan guruh o‘quvchilari soniga qaraganda ko‘proqni tashkil qildi. Shularga tayangan holda leksikologiya bo‘limini o‘qitishga oid darslarni nisbatan innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilgan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga o‘quvchilarga yangi mavzuni tushuntirib bo‘lgandan so‘ng mavzuni mustahkamlash uchun badiiy asardan parchalar berib, tahlil qilish ko‘nikmalarini o‘sirish lozim. Tajriba–sinov ishi o‘tkazilganda shunga amin bo‘ldikki, o‘quvchilar o‘zlariga noma'lum bo‘lgan yangi matn bilan ishslashga qiziqish bildirishdi va darslarda faol ishtiroy etishdi.

Tayanch so‘zlarning o‘zbekcha-inglizcha lug‘ati

Adabiy til – literary language

Amaliy – practical, applied

Amaliy ish – practical work

An’anaviy – traditional

Aqliy faoliyat – mental activities

Asosiy – main, chief, principal, fundamental

Dars – lesson, class, occupation

Darslik – textbook, manual, primer

Dastur – reversing rod

Dolzarb – peak, culmination

Erkin – free

Izohli lug‘at – dictionary

Faol – active

Fikr – idea, thought, opinion

Foydalanish – use, using, useful

Ijobiy – positive, favourable

Ijodkorlik – creation

Ilmiy – scientific

Iqtidorli – powerful, mighty

Izoh bermoq – explain

Joriy etmoq – put into practice, introduce

Kompyuter – computer

Ko‘rsatmali – graphic, obvious

Malakali – experienced, skilled

Maqsadga muvofiq – expedient

Mavzu – subject, theme

Mashg‘ulot – occupation, studies

Metod – method, methodology

Metodika – method, methodology
Mustaqil – self-dependent
Qiziqarli – interesting, interestingly
Rivojlantirish – fostering, developing
Samarali – fruitful, productive, effective
Ilmiy tadqiqot – research
Tahlil qilmoq – analyze
Taqdim qilmoq – present smb. (with), offer
Tatbiq etmoq – apply, employ, use
Ta’lim – education, teaching
Texnologiya – technology
Umumta’lim – public education
Uzluksiz – uninterrupted, continuous
Uzviy – organic
Vosita – instrument, means, ways, methods
Xulosa – conclusion, summary
Zamonaviy – contemporary, modern, current
O‘rgatish – instructing, teaching
O‘yin – play, game
O‘zlashtirmoq – master, acquire, assimilate (a subject, profession)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 288 б.
2. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000.
3. КаримовИ.А. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ги Қонуни. // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997.
5. Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури. // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б.31-61.
6. Ўзбек тилининг изоҳли лугати: 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. П. Э-М // Тахрирҳайъати: Мирзаев Т. (раҳбар) ва бошқалар. ЎзРФА Тил ва адабиёт институти. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 672 б.
7. Абдужаббарова З.Р. Supplementary reader: Ўқув-методик қўлланма. – Тошкент: ТДПУ, 2010.
8. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: ИКАР, 2009. –448 с.
9. Алдер X. НЛП: Современные психотехнологии. – Санкт-Петербург: Питер, 2000. –160 с.
10. Акрамов Ш., Акрамова Л. Сатҳлараро боғланиши тест технологиясидан фойдаланиш // Тил ва адабиёт таълими. – 2002.
11. Аминова С. Она тили дарсларида ноанъанавий усуллар // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 1995.
12. Бектошев Ш. Она тили дарсларида ўйин усулидан фойдаланиш // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 1993. – № 5-6. – Б. 15-16.

- 13.** Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топишмоқлардан фойдаланиш: Пед. фан. номз. ... ёзилган дисс. – Тошкент, 1996.
 - 14.** Бокиева Ҳ. Ҳар дарсда ҳамкорлик // Бошлангич таълим. – Тошкент, 2008.
-
- 15.** Барабанова Г.В. Управление процессом обучения пониманию английских научно-технических текстов по специальности в неязыковом ВУЗе: Дис. ... канд. пед.наук. – Севастополь, 1990.
 - 16.** Барт Р. Лингвистика текста // Новое в зарубежной лингвистике. – Москва: 1978. Вып. 8. –449 с.
 - 17.** Белянин В.П. Основы психолингвистической диагностики: Модели мира в литературе. – Москва: Тривола, 2000.
 - 18.** Белянин В.П. Психолингвистические аспекты художественного текста. – Москва: МГУ, 1988.
 - 19.** Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М.: Прогресс, 1974.
 - 20.** Бондарко А.В. Грамматическое знание и смысл. – Ленинград: Наука, 1978.
 - 21.** Вайнрих Х. Лингвистика лжи // Язык и моделирование специального взаимодействия. – Москва: Прогресс, 1987.
 - 22.** Васильев С.А. Синтез смысла при создании и понимании текста. – Киев: Думка, 1988.
 - 23.** Вайсбурд М.Л., Блохина С.А. Обучение пониманию иноязычного текста при чтении как поисковой деятельности // Иностранные языки в школе. – Москва, 1997.
 - 24.** Баграмова Н.В., Радивилова С.И., Чернышева Г.С. Пособие по обучению чтению на английском языке. – Москва: Просвещение, 1991.–
 - 25.** Фоломкина С.К. Обучение чтению на иностранном языке в неязыковом вузе. – Москва: Высшая школа, 1987.
 - 26.** Колшанский Г.В. Коммуникативная функция и структура языка. – Москва: ЛКИ, 2007.

- 27.** Кост Д. Оригинальные тексты и материалы на продвинутом этапе обучения // Вопросы методики обучения иностранному языку за рубежом. – Москва: Просвещение, 1978.
- 28.** Кох В.А. Предварительный набросок дискурсивного анализа семантического типа // Новое в зарубежной лингвистике. – Вып. 8. – Москва: Прогресс, 1978.
- 29.** Йўлдошева Н. Умумўрта таълим мактабларида синонимларни янги педагогик технология асосида ўқитиш: Пед. фан. номз. ... дисс. автореферати. – Тошкент, 2002.
- 30.** Mahmudov N., Nurmonov A. va boshqalar. Ona tili. 5-sinf. / O`qituvchilar uchun qo`llanma. – Toshkent: Ma`naviyat, 2004.
- 31.** Мирмахсудова М. Ўқувчилар нутқини такомиллаштиришда грамматик терминлардан фойдаланишнинг лингвометодик асослари (5–7-синф она тили дарслари мисолида):Пед.фан.номз. дисс. – Тошкент, 2004.
- 32.** Омилхонова М., Абдуллаев Й., АбдулаҳатоваР., ИноғомоваР., Орифжонов А. 5- ва 6-синфда онатили дарслари (методик қўлланма). – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
- 33.** Омилхонова М., Абдуллаев Й. ва бошқалар. 7- ва 8- синфда она тили дарслари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
- 34.** Ona tili: Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / Mual. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirov va boshq. – Toshkent: Ma`naviyat, 2015.
- 35.** Ona tili: Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun / N.Mahmudov, A.Nurmonov va boshq. – Toshkent: «Tasvir» nashriyot uyi. 2005.
- 36.** Ona till: Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik / N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov va boshq. – Toshkent: Ma`naviyat, 2016.
- 37.** Ona tili fanidan Davlat ta'lim standarti: Uzviylashtitilgan Davlat ta'lim standartlari va o‘quv dasturlari. – Toshkent, RTM, 2010.

- 38.** Ona tili fanidan umumiy o‘rta ta’lim mакtabining o‘quv dasturi: Uzviydashtitilgan Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari. – Toshkent, RTM, 2010.
- 39.** Розиков О. Ўзбек тилидан дарс типлари: Педагогика институтларининг филология факультетлари студентлари хамда тил ва адабиёт ўқитувчилари учун қўлланма – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
- 40.** Сайдов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед.фан. номзоди. ...дисс.–Тошкент, 2000.
- 41.** 8-sinf uchun ona tili o‘quv fanidan takomillashtirilgan dastur. Tuzuvchilar: H.Ne’matov, N.Mahmudov, R.Sayfullayeva, M.Qodirov, M.Abduraimova // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2008.
- 42.** Сафарова Р. Она тили таълимининг янгиланган мазмуни ва унинг дидактик асослари. – Тошкент: Фан, 1995.
- 43.** Тил таълими босқичларида узвийликни таъминлашнинг илмий-амалий муаммолари// Ўзбек тили доимий анжумани ўнинчи йигини материаллари. – Тошкент: РТМ, 2009.
- 44.** Юсупова Ш.Ж. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илфор педагогик технологияларни жорий этиш (ноанъанавий усуллар ва компьтердан фойдаланиш): Пед. фан.номзоди ...дисс. – Тошкент, 1998.
- 45.** Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: Пед. фан.доктори ... дисс. – Тошкент, 2005. – Б.270 ; дисс. автореферати. – Б.44.
- 46.** Ўзбек мактабларида она тили таълими концепцияси // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 1994. – № 1. – Б. 8-13.
- 47.** Ўзбек мактабларида она тили ўқитиш концепцияси. – Тошкент: ЎзПФИТИ, 1993. –Б. 21 .
- 48.** Курбонова Х. Она тили таълими мазмунини янгилашнинг лингвометодик асослари: Пед.фан.номз. ... дисс. – Тошкент, 2005.

49. Фуломов А., Қобилова Б. Нутқ ўстириш машғулотлари: Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

Elektron ta’lim resurslari

Elektron saytlar ro‘yxati:

- <http://www.ZiyoNet.uz>;
- <http://www.ziyouz.uz>;
- <http://www.uzedu.uz>;
- <http://www.kitob.uz>;
- <http://www.fikr.uz>;
- <http://www.utube.uz>;
- <http://www.edunet.uz>;
- <http://www.edu.uz>;
- <http://rtm.uzedu.uz>;